جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
19-aprel
№ 17(17)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

MA’RIFATLI KISHILAR

ZAMONAMIZNING YANGI USUL MAKTABI



(Davomi 2-sahifada).

GURUNG

E’TIROFNI SOTIB OLIB BO‘LMAYDI

O‘zbek milliy estrada san’atining taniqli namoyandasi, O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov bilan suhbatimiz Zokirovlar sulolasining o‘zbek san’atida tutgan o‘rni, ota-ona va farzandlar munosabati, bugungi milliy estradamiz, qadriyatlarimiz haqida bo‘ldi.



– Farrux Karimovich, bizning avlod Karim Zokirov, Botir Zokirov va sizning qo‘shiqlaringizdan huzurlanib ulg‘aygan. Shuningdek, Jamshid Zokirovning teatr sahnasida yaratgan betakror obrazlari hali-hamon tomoshabinlar yodidan ko‘tarilgani yo‘q. Sizlarning oilangizni tom ma’noda “san’atkorlar sulolasi” deyish mumkin. Suhbatimiz avvalida ota-onangiz va ularning farzandlarga munosabati haqida gapirib bersangiz.

– Men o‘zimni nihoyatda baxtli inson deb bilaman. Agar mabodo hayotimni qayta boshlash kerak bo‘lsa, hech ikkilanmasdan, yana shu hayot yo‘limni tanlagan bo‘lardim. Chunki Karim Zokirov va Shoyista Saidovadek ziyoli, kamtarin, odamshavanda, oilaparvar, san’atga oshufta insonlar bag‘rida o‘sib-ulg‘aydim.

(Davomi 4-sahifada).

MUNOSABAT

KELAJAK KAFOLATI



Hozirgi global dunyoda inson kapitali uchun kurash ketyapti. Bu kurash zamirida mafkuraviy xurujlar orqali odamlar ongini egallash, oqibatda ularni o‘ziga xizmat qildirish istagi yotibdi. Dunyo sahnidagi bunday g‘irrom o‘yinlar bugun hech kimga sir emas. Ana shunday tahlikali zamonda o‘zlikni saqlab qolish, yoshlarni el-yurt istiqboli uchun xizmat qiladigan avlod qilib tarbiyalash oson emas. Zamonga mos yangicha yondashuvlar kerak. Ammo yangicha yondashuv degani qanday bo‘ladi?

Uning ma’lum bir shaklini ishlab chiqsak, samara berishiga kafolat bormi? Axir, bu uzoq davom etadigan va natijasi keyin bilinadigan jarayon hisoblanadi. Shular haqida o‘ylaganimda hazrat Alisher Navoiyning:

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o‘zungdin istagil, –

degan bayti yodimga tushadi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi boy madaniyat, shonli tarixga ega. Mamlakatimizni taraqqiy ettirish uchun tashqaridan najot izlashimizga hojat yo‘q. Milliy qadriyatlarimizni qayta tiklasak, ularni zamonimizga moslay olsak bas. Bugun mamlakatimizda aynan shu jihatga katta e’tibor qaratilayotgani kishini quvontiradi. Buni Yangi Toshkent shahrini barpo etish bilan bog‘liq jarayon misolida ham ko‘rishimiz mumkin.


Ulkan saltanatga asos solgan Amir Temur bobomiz Samarqandni o‘z davrining madaniyat va sivilizatsiya markaziga aylantirgan edi. Sohibqironning sa’y-harakati bilan dunyoning eng bilimdon kishilari, usta hunarmand va quruvchilari bitta joyda jamlandi. Ular bugungacha jahon ahlini lol qilib kelayotgan Samarqand shahrini bunyod etishda ishtirok etdi. Amir Temur himmati bilan yongan mayoq hamon bizga yo‘l ko‘rsatib turibdi. Sohibqironning sharofati bilan O‘rta Osiyoda o‘ziga xos Uyg‘onish davri voqe bo‘ldi. Bu ulug‘ daryodan suv ichib Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi daholar ulg‘aydi. Shu bois ham Alisher Navoiyning yuqorida tilga olingan hikmatlari bizga to‘laligicha dasturilamal bo‘la oladi. Xususan, keyingi yillarda mamlakatimizda boshlangan o‘zgarishlar Uchinchi Renessansni yaratishga qaratilgani bilan e’tiborlidir. Davlatimiz rahbari yangi Uyg‘onish davrini boshlash tashabbusini ilgari surganida barchamiz birdek quvongan edik. Bugungi kunda ana shu xayrli tashabbus amaliy tus ola boshladi.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING GAPI

DOIMIY HARAKATDAGI HAYOTIY DASTUR

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil so‘ngida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari soha vakillari va ziyolilar oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan o‘ta jiddiy va dolzarb vazifalarni qo‘ydi. Ayniqsa, o‘tgan asr boshlarida millat kelajagi uchun qayg‘urgan, xalqning ma’rifatli, dunyoviy bilimlar egasi bo‘lishini orzu qilgan ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishini, xalqimiz jadidlar ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerakligini alohida ta’kidladi.



Keyingi yillarda asrlar davomida jadidlar intilib kelgan ezgu g‘oyalar ro‘yobga chiqmoqda. Prezidentimiz “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, deganida ayni haqiqatni aytgan edi.

Bundan sal oldinroq poytaxtimizda Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligida “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy konferensiyada ham jadidlik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etilib, uning g‘oyasi, maqsad va vazifalarini izchil o‘rganish, jadidlarning milliy davlatchilik shakllanishi bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy sa’y-harakatlari borasida fikr almashilgan edi.

(Davomi 5-sahifada).

TA’LIM MUTASADDILARI DIQQATIGA

INSHO HAQIDA INSHO



Insho omili. Maktab ta’limidagi insho degan nihoyatda muhim nazorat usuli unutilgani yo‘qmi? Unutilmagan bo‘lsa ham, hozir u ta’lim jarayonining bir chetiga surib qo‘yilgani aniq: “Nima hojat? Vaqtni testga tayyorlanishga sarflash kerak”. Holbuki, insho millat taraqqiyoti uchun zarur omillardan biridir.

Insho o‘quvchilarda so‘z boyligini orttirish, imlo qoidalarini bilish, xotirani mustahkamlash (badiiy asarlardan iqtiboslar), o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalay olish, katta hajmdagi matnni tizimga sola bilish (rejalashtirish) kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Insho – kitob o‘qish, uqish, o‘qilgan asar ustida fikrlash va tahlil qilishga undaydi. U yangilikka intilish (kreativlik – badiiy asar yoki ilmiy maqola sifatida chop etish mumkin bo‘lgan insholar yozilgan), assotsiativ tafakkur (o‘xshatish, istiora, mubolag‘a kabi so‘z san’ati unsurlaridan foydalana bilish), mantiqiy fikrlash, o‘z xatolarini aniqlash va tuzata olish, yozganini tahrir qilish, takomillashtirish kabi qobiliyatlarni mustahkamlaydi. Bularning barchasi esa mamlakat miqyosida bo‘lg‘usi kadrlarning sifatini, ayniqsa, davlat lavozimlarida ishlaydigan xodimlarning malakasini shakllantirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Insho – o‘quvchidan kitob o‘qishni talab etar ekan, shu orqali uning ruhiy va emotsional dunyosini boyitadi, xarakterida mardlik, olijanoblik, jo‘mardlik, vafodorlik, sadoqat, halollik, adolatparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik, xolislik, burchdorlik, samimiylik, oriyat kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Bugun bunday fazilatlar Abdulla Oripovning “Qo‘riqxona” she’rida zikr etilganiday noyob bo‘lib borayotganining sababi, yaxshilab o‘ylab ko‘rilsa, inshosiz ta’limga ham borib taqaladi.

Insho maktab ta’limida, albatta, alohida o‘ringa ega bo‘lishi lozim. Buning uchun esa yuqori bosqichlarda muntazam insho yozdirilishi, maktabni bitirish imtihonlarida ham, oliy o‘quv yurtlariga qabul imtihonlarida ham inshodan sinov bo‘lishi shart. Afsuski, hozirgi test sinovi inshoga, umuman, yozma imtihonga ko‘ndalang.



O‘sib kelayotgan avlodlarning tafakkurini shakllantirishda insho “hayot va mamot” masalasi, ta’limda inshoni tiklash esa mamlakat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga molik muammodir.

“Nuridiyda” emas, “nuri diyda”. Insho umumiy ta’lim tizimiga XIX asrda Yevropaning ilg‘or pedagoglari tomonidan kiritilgan. Buyuk Britaniya maktablarida hozirgacha nafaqat adabiyot, hatto tarix va geografiya fanlaridan ham esse yozdirib kelinadi – bu vatanparvarlikni tarbiyalaydi. Ingliz tilida u “yozma ijod mahsuli” (written composition) deb ataladiki, vositaning mohiyatini ravshan ko‘rsatadi: yozishga va ijodga o‘rgatish!

O‘zbekiston tarixida insho XX asrning 20-yillarida joriy qilinib, to 50-yillargacha o‘z funksiyasini a’lo darajada uddalab keldi. Bu asrning o‘rtalaridan mamlakatda fan va madaniyat, ayniqsa, adabiyot va jurnalistika yuksalishida ana shu omilning roli katta bo‘lgani shubhasiz. Xo‘sh, nega endi 1950-yillargacha? Undan keyin ham insho yozilgan-ku! To‘g‘ri, keyin ham yozilgan, ammo oliy o‘quv yurtlariga kirib o‘qish degan tushunchada g‘aroyib mayishish (deformatsiya) boshlangan. Uning mohiyati: bilim bo‘lishi shart emas, shpargalka, tanish-bilish, pora berish kabi yo‘llar bilan o‘qishga kirib, diplomli bo‘linsa kifoya.

Mana shu deformatsiya oqibatida insho ijodiy sinov emas, balki baho olish predmetiga aylana bordi. Baho esa imtihon topshiruvchining taqdiriga – oliy o‘quv yurtiga kirish-kirmasligiga ta’sir qiladi. Demak, nima qilib bo‘lsa ham ijobiy, imkon qadar yuqori, “prestijniy” ixtisosliklarga kirish uchun “a’lo” (“besh”) bahoga erishish kerak. Buning natijasida oliy o‘quv yurtlariga qabul imtihonlari, alal-oqibat funksiyasiga ko‘ra o‘zining ziddiga – bilimlilarni emas, ayrim toifadagilarni saralash vositasiga aylandi.

Bu hodisani yorituvchi yorqin bir misol keltirishni lozim topamiz. Ushbu satrlar muallifi o‘tgan asrning 80-yillari boshida bir marta apellyatsiya komissiyasi a’zosi bo‘lgan edi. Bu juda yengil yumush chiqdi. Chunki yildan yil paxta rejasi ortib borishi, kolxoz-sovxozlardagi qallobliklar sababli maktab o‘quvchilari paxta yetishtiruvchi asosiy kuchga aylangan, umrining yarmi dalada o‘tar ediki, buning oqibatida abituriyentlarning bilim darajasi keskin tushib ketgan.

(Davomi 6-sahifada).

KELAJAK KAFOLATI



Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Boshlanishi 1-sahifada.

Prezidentimiz joriy yil 3-aprel kuni Yangi Toshkent shahrining ilk inshootlari qurilishini boshlab, ta’bir joiz bo‘lsa, ularga oq fotiha berdi. Marosimda yangi shahar, avvalo, ma’naviy-ma’rifiy markazlardan boshlanishi kerakligi ta’kidlanganida biz Uyg‘onish davriga qadam tashlayotganimizni yana bir bor yurakdan his etdim.

Xususan, bu yerda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazining barpo etilishi mamlakatimiz tarixida nihoyatda unutilmas voqeaga aylanishiga ishonchim komil. Ehtimol, buning ahamiyatini hozir to‘la anglab yetmasdirmiz, ammo vaqt o‘tgani sari uning hayotimizda qanchalik muhim o‘rin tutishini chuqurroq idrok qilib boraveramiz. Negaki, bu joy juda katta ilmiy salohiyatni, milliy qadriyatlarni o‘zida jamlagan markaz bo‘ladi. Fikrlarimni komil ishonch bilan aytayotganim sababi, markazning kelgusi faoliyati borasida puxta rejalar ishlab chiqilgan. Ya’ni, bu markaz majmua tarzida tashkil etiladi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Adabiyot muzeyi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti o‘sha yerga ko‘chiriladi. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi, Maqom markazi ham shu hududga joylashtiriladi.

Bilamizki, hazrat Navoiy Samarqandga kelib ta’lim olgan. Chunki Sohibqiron Amir Temur bu yerda noyob ilmiy maktablarga asos solgan edi. Bugun ham yurtimizda ta’limga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari yoshlarning orzu-istaklarini amalga oshirishda katta yo‘l ochyapti. Yangi Toshkent shahri timsolida shu an’ana davom etayotgani bizda faxr uyg‘otadi. Kelgusida yangi majmuada Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabi ham tashkil etiladi.

Yurtimizda yoshlar doim hal qiluvchi kuch bo‘lib kelgan. Nihol qanday parvarish qilinsa, xuddi shu shaklda o‘sadi. Uning to‘g‘ri unib-o‘sishi bog‘bonga bog‘liq. Shu ma’noda, ijod maktabi yurtimizdagi eng yaxshi “bog‘”lardan biri, uning tarbiyachilari, bog‘bonlari Davlatimiz rahbari boshchiligidagi ziyolilar qatlami bo‘ladi.

Ijod maktabida zamonga mos ravishda bir nechta xorijiy tillarni biladigan, vatanparvar, tafakkuri keng, ijodkor yoshlar tarbiyalanadi. Ular kelajakda boshqalarni o‘z orqasidan ergashtiruvchi kuchga aylanadi. Chunki bu yerda beriladigan bilimlar yoshlarning har tomonlama yetuk avlod bo‘lib voyaga yetishiga qaratiladi. Ular avvalo ma’naviy jihatdan baquvvat, sog‘lom



e’tiqodli, o‘z Vataniga sadoqatli yoshlar bo‘lib kamol topadi.

Yangi ijod maktabida Alisher Navoiy siymosi orqali bizning qadimiy madaniyatimiz va shonli tariximiz gavdalanadi. Milliy g‘ururimizga asos bo‘ladigan barcha jihatlar mana shu yerda jamlanadi va bu – dunyoda mafkuraviy kurashlar avj olgan hozirgi tahlikali davrda mamlakatning tayanch kuchi hisoblangan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Yangi Toshkentning yangi majmuasi o‘ziga xos ilm va ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘ladi. Negaki, bu yerda juda katta ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Bu ishlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Ilmiy izlanishlar madaniyatimiz, tilimiz, qadriyatlarimizni o‘rganish, ularni keng targ‘ib etishga qaratiladi. Ya’ni, butun dunyodan olimlar kelib, biz bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Ular ishtirokida o‘zbek adabiyoti, tili va madaniyati bo‘yicha konferensiyalar, tadbirlar o‘tkaziladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ajdodlarimizning ilmiy merosini o‘rganishga katta e’tibor berilyapti. Ayniqsa, ilmiy tadqiqot ishlaridagi ijobiy o‘zgarishlar natijasida hurmatli olimlarimiz, professor va dotsentlarimiz safi kengaydi. Bo‘lg‘usi majmua bu ishlarning mantiqiy davomidir.

Ilmiy salohiyat, milliy madaniyatimiz haqida gap ketganda muzeylar haqida ham to‘xtalib o‘tish joiz. Zero, xalqlarning o‘tmishidan so‘zlaydigan muzeylar ularning madaniyatini ham, ilmiy salohiyatini ham o‘zida jam etadi. Darhaqiqat, elimizning boy madaniy merosi bor. Uni yanada ko‘proq targ‘ib-tashviq etishimiz zarur. Dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan sayyohlar bu merosni o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa, ilmiy salohiyatimizga hayrat ila boqsa, bu albatta, kamol topib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularda milliy g‘urur degan eng go‘zal tuyg‘uni mustahkamlaydi. Shu ma’noda, Yangi Toshkentda Adabiyot muzeyi uchun zamonaviy bino qurib berilishi ma’naviyatimiz ravnaqi yo‘lida yaxshi samara berishiga ishonaman.

Bugungi kunda Adabiyot muzeyi Navoiy ko‘chasidagi tor, ta’mirtalab binoda faoliyat yurityapti. Shu sababli undagi eksponatlar ham, keluvchi mehmonlar soni ham cheklangan. Yangi markazdagi muhtasham muzeyda esa qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha adabiyotimiz va madaniyatimiz, ayniqsa, Alisher Navoiy bilan bog‘liq mavzular yangi texnologiyalar asosida namoyish etiladi.

Davlatimiz rahbari majmua hududida Milliy kutubxona va Milliy teatr binolari ham barpo etilishini ta’kidladi. Bu ham ayni muddao. Biz yuqorida majmuani ilm qo‘rg‘oniga qiyoslagan edik. Albatta, qo‘rg‘on tugal bo‘lishi uchun unda kutubxona bo‘lishi zarur. Adabiyotning, madaniy hayotimizning jonli tasviri bo‘lgan teatr ham shu safdan joy olishi esa nur ustiga nur bo‘ladi.

Yangi majmuaga tamal toshi qo‘yish marosimida mana shunday xayrli yangiliklarni eshitib, ko‘nglim quvonchga to‘ldi. Beixtiyor shu kuni boshlangan ezgu ishlarning samarasi ko‘z oldimga keldi. Hurmatli Prezidentimizning “Yangi shahar qurilishini avvalo mana shunday ma’naviy-ma’rifiy maskanlardan boshlashimiz chuqur ramziy ma’noga ega, biz zamonaviy osmono‘par binolar bilan bir qatorda bebaho madaniyatimizni dunyoga namoyon etadigan, xalqimiz qalbida faxr-iftixor tuyg‘usini uyg‘otadigan ochiq osmon ostidagi ma’naviyat markazini ham barpo etishimiz zarur”, degan so‘zlari barchamizning ko‘nglimizdagi gap bo‘ldi. Ularning zamirida katta hayotiy haqiqat bor. Zero, dunyoda buyuk shaharlar, binolari osmonga tutash kentlar bisyor. Albatta, ularning har birining o‘ziga xos tarovati, jozibasi bor. Shunday shaharlar borki, ularda hayot asosan moddiyat, biznes ustiga qurilgan. U yerda faqat savdo, sayyohlik rivoj topadi. Shubhasiz, buning hech yomon tomoni yo‘q. Chunki xalq farovonligi uchun bu jihatlar juda zarur. Yangi Toshkentning poydevori ma’naviyat asosida qurilayotgani esa xalqimizning dunyoga ezgulik nigohi bilan qarashining yorqin dalilidir.

Buni bugun yurtimizdagi xalqchil ijtimoiy islohotlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Inson qadri uchun deya boshlangan o‘zgarishlar sharofati bilan odamlarda ertangi kunga ishonch kuchaydi. Bugun yurtdoshlarimiz halol mehnat orqali hurmat, e’tibor topish mumkinligini dildan his etyapti. Masalan, Navro‘z bayrami arafasida farrosh opalarimizga ham davlat mukofoti berildi. Bu ham avvalo inson, uning mehnati qadr topayotganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bir vaqtda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga ham katta e’tibor berilayotgani kelajakning kafolati desak, mubolag‘a bo‘lmas. Negaki, bunday o‘zgarishlar pirovard natijada Uchinchi Renessansning poydevori mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu Yangi O‘zbekistonning gullab-yashnashiga, ertaga dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishiga zamin yaratadi.

Oradan yillar o‘tadi, biz ko‘zlagan marralarimizga yetib borganimizdan keyin bugungi qilinayotgan ishlar sarhisob qilinib, hozirgi intilishlarimizga munosib baho beriladi. Bir zamonlar Samarqand iqtisodiy barqaror, yuksak madaniyat va ilm maskani sifatida dunyoda nom qozongan edi. Kelajakda Yangi O‘zbekiston, Yangi Toshkent ham Uchinchi Renessansning mayog‘i bo‘lib dunyoga dong taratishiga ishonchimiz komil.

ZAMONAMIZNING YANGI USUL MAKTABI

Xalqni yuksak ilm-ma’rifatli qilish uchun kurashgan jadidlar o‘z maqsadlarining bir qismini teatr san’ati vositasida amalga oshirishga bel bog‘lagan edilar. Biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan maktab ham o‘quvchilar ongiga ma’rifat ziyosini sahnaviy tomosha uslubi yordamida singdirib, shu asosda bir qator muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgani jadid bobolarimiz naqadar to‘g‘ri yo‘l tanlaganini ko‘rsatadi.

Poytaxtimizdagi 19-umumta’lim maktabidagi qizg‘in jarayon, o‘quvchilarning shavqi-yu ishtiyoqi bu yerda professional ijodkorlik muhiti yaratilganidan darak beradi. O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida bunyod etilgan mazkur maktabda bugun ikki mingga yaqin o‘quvchi bilim oladi. Darslar ikki navbatda tashkil etilgan, to‘garaklar faoliyati a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi samimiy munosabatlar havas qilsa arzigulik.

– O‘quvchilarimizning to‘qson sakkiz foizi o‘zbek millatiga mansub bolalardan iborat, – deydi o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi Malika Shomirzayeva. – Bilasiz, rus tilida ta’lim beriladigan maktabda bola o‘zini o‘zbek maktabi o‘quvchilariga qaraganda biroz erkinroq tutadi. Til ham odamga fe’l-atvorni yuqtirar ekan shekilli, ruscha gaplashadigan bolalarda milliy mentalitetdan biroz uzoqlashish kuzatiladi. Biz buning oldini olish uchun o‘z qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratyapmiz. O‘quvchi yoshlardan o‘zbek tilidagi badiiy adabiyotlarni ko‘proq o‘qishlarini talab qilyapmiz. Kitobxonlik tadbirlarining deyarli barchasi ona tilida o‘tkaziladi. Qizlarimizni hayotga milliy qadriyatlarimiz asosida tayyorlash faoliyati bilan shug‘ullanadigan “Qizlarjon” nomli klubimiz bor. Bir so‘z bilan aytsam, ta’limni ruscha, tarbiyani o‘zbekcha tashkil etganmiz.

Ustoz aytganicha bor. Maktabga kiraverishning o‘zidayoq buni his etasiz. Atlas-adraslar “sharshara”si ostida milliy buyumlarning mo‘jaz ko‘rgazmasiga ko‘zi tushgan kishining ruhiyatiga qadriyatlarimiz nafasi urilishi tayin. Ustozlar jamoasi o‘z maqsadlari yo‘lida to‘g‘ri usulni tanlashgan. Ular maktabda “Parvoz” nomli bolalar teatri jamoasini tashkil etib, har chorakda bir spektakl sahnalashtirishadi. Jumladan, birinchi chorakda taniqli o‘zbek shoiri Sulton Jo‘ra qalamiga mansub “Tinish belgilarining majlisi” asari qo‘yilgan bo‘lsa, ikkinchi chorak yakuni arafasida mashhur rus yozuvchisi Ivan Krilovning “Fil – hokim” masali tomoshasi bo‘lib o‘tdi. Yaqinda esa respublika “Turon” teatr tanlovining tuman bosqichida “Parvoz”ning havaskor o‘quvchi-aktyorlari taniqli yozuvchi O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” asari asosidagi spektakl bilan hakamlar va tomoshabinlar e’tirofiga sazovor bo‘lib, birinchi o‘rinni egallashdi.



Ushbu o‘quv dargohiga Rayhona Kulunchakova rahbar etib tayinlangandan so‘ng maktabdagi ijodiy muhit yanada qizg‘in tus oldi. Direktor mana shu maktabda ushalmagan orzulari ro‘yobga chiqqanini aytadi.

– Yoshligimda rejissyor bo‘lishni juda-juda istaganman. Lekin taqdir taqozosi bilan o‘qituvchilik sohasini tanladim. Orzum armonga aylanmadi, chunki iqtidorim va ishtiyoqimni o‘quvchilarimga yuqtirdim. Ularning ko‘pchiligi ijodkor bo‘lib yetishdi. O‘ylab-o‘ylab maktabning o‘z havaskorlik teatrini tuzishga qaror qildik. Uning shunchaki to‘garak sifatida qolishini xohlamadik. Maktabimiz nafaqat ijodiy tomonlama, balki o‘qitish sifati bo‘yicha ham tumanda yetakchi o‘rinlarda. Oliy o‘quv yurtlariga kirish bo‘yicha ham oldingi safdamiz. O‘tgan yili o‘n nafar o‘quvchim davlat granti asosida o‘qishga kirdi. Shohrux Mirsalimov Londonda, yana to‘rt nafari Italiyada o‘qimoqda. Bolalarimiz Xitoy, Koreya davlatlarining oliy o‘quv yurtlarida ham tahsil olishyapti. Shu yili bitiradigan o‘quvchilarning yigirma besh foizi hozirdanoq talabalikni qo‘lga kiritib turibdi.

Direktor o‘zi rahbarlik qilayotgan maktabning yutuqlari haqida faxr bilan gapirar ekan, marosimlar zalida o‘tkazilayotgan navbatdagi tadbirni tomosha qilishga taklif etdi. “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida davom etayotgan forumning maktab bosqichini Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Shayxontohur tumani bo‘limi rahbari Nilufar Aliboyeva bilan birgalikda tomosha qildik.

– Bu maktabda ma’naviyatga oid tadbirlar maromiga yetkazib o‘tkaziladi, – deydi N.Aliboyeva. – Tumanimizda rus tiliga ixtisoslashgan to‘rtta ta’lim maskani bo‘lsa, an’analarimiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimizga eng e’tiborlisi shu maktab deb ayta olaman. O‘quvchilarining dunyoqarashi keng, iqtidorli bolalar ko‘p. O‘zlari ssenariylar yozadi, o‘zlari sahnalashtiradi. Tadbirlarga xalqimizning sevimli san’atkorlarini ham chaqirishadi. Mashhur filmlarning taqdimotlarini ham shu maktab boshlab beradi. Eng ahamiyatlisi – bolalar umuman bo‘sh qolmaydi. Albatta, bunday tadbirlarga tayyorgarlik ularda izlanishga, o‘rganishga ishtiyoqni rivojlantiradi.

Ha, maktabda tadbirlar shunchaki xo‘jako‘rsinga o‘tkazilmaydi. Har bir namoyish o‘quvchilarga o‘zining ijobiy ta’sirini, albatta, ko‘rsatadi. Birgina misol: taniqli rejissyor Hilol Nasimovning “Hayot” filmi taqdimotidan keyin yuraklarida Vatan mudofaasi yo‘lida xizmat qilish hissi uyg‘ongan ikki o‘quvchi egniga harbiy libos kiydi.

Umuman olganda, maktabda hozirdanoq ijtimoiy hayotda o‘z yo‘lini topgan o‘quvchilar ko‘p. Direktor boshlab bergan tadbirda o‘zbek tilida biyron tilda gapirayotgan jingalak sochli, qorachadan kelgan qiz diqqatimni tortdi. Men uni ajnabiy deb o‘yladim. Sabina Ibrohimova ota tomondan arab millatiga mansub bo‘lishiga qaramay, hujjatlarda millatini o‘zbek deya yozdirganini faxr bilan so‘zladi. Baynalmilal oilada katta bo‘lgani ham, rus maktabida o‘qiyotgani ham uning O‘zbekistonga bo‘lgan ehtiromiga zarracha soya solmagan.

– Otam ispaniyalik arab, ona tomondan bobom – qozoq. Lekin uyimizda hammamiz o‘zbekcha gaplashamiz, – deydi Sabina. – Men o‘zbek, rus va ingliz tillarini yaxshi bilaman, fransuz tilini ham o‘rganmoqchiman. Maktabimizda o‘tadigan hamma tadbirlarda faol qatnashaman. To‘rt yildan buyon xususiy reklama agentligida ishlayapman. Maktabni tamomlab, diplomat yoki huquqshunos bo‘lmoqchiman, va albatta, o‘zim tug‘ilgan, ulg‘aygan yurtim – O‘zbekistonda o‘qishni istayman.

Sabina modellik faoliyatidagi qiyinchiliklar haqida gapirib, yaqinda o‘tgan liboslar namoyishida yigirma kilolik kelinko‘ylakni kiyish to‘g‘ri kelganini aytadi. Uning o‘z hayotiga oid hikoyasi va kelajak haqidagi orzulariga quloq tutarkanman, inson tarbiyasida oila bilan bir qatorda maktabning ham juda katta o‘rni borligini

yana bir marta chuqur his qildim. Sababi, o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyat etib, bilim olishni davom ettirishga unday oladigan o‘quv maskani haqiqatan ham “dunyo imoratlarining eng go‘zalidir”.

O‘n yilcha oldin Hindistonning Yangi Dehli shahridagi metro yo‘li o‘tgan ko‘prik ostida ta’lim olayotgan bolalarni ko‘rgandim. O‘z xalqining fidoyisi bo‘lgan Rajesh Sharma ko‘prik tagidan tasodifan o‘tarkan, yigit-qizlarning bekorchi o‘yinlar bilan mashg‘ulligidan hayron qoladi. Ba’zilarining ota-onalaridan bolalaringizni o‘qishga bersangiz bo‘lmaydimi, deb so‘raganida, ular maktablar uzoq-zamonaviy binolar emas, ustoz mehri va fidoyiligi ko‘proq ahamiyatga ega. Sevimli fan bo‘lmaydi, sevimli o‘qituvchi bo‘ladi, degan fikrning isbotini shu kunlarda yuz bilan yuzlashay deb turgan 19-maktab faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin. Binosi eski bo‘lsa ham, ichidagi muhit mutlaqo zamonaviy, ta’lim tizimi ham Yangi O‘zbekiston tamoyillari bilan uyg‘un. Bu ijodkorlar maktabi hali ko‘plab iste’dodli va bilimli yoshlarni tarbiyalashiga, xuddi jadid bobolarimiz kabi xalqni ma’rifatli qilishga munosib hissa qo‘shishiga ishonamiz.

Muhayyo PIRNAFASOVA

ZARDA



ANTENNAMIZ QAYOQQA QARAGAN?

Mahallada g‘alati bir gap tarqaldi: nima emish, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan Ne’mat ota aslida unchalik mo‘min odam emas ekan. Oilasi bilan kechki dasturxon ustida jamuljam bo‘lib televizor ko‘rib o‘tirishganida, birdan o‘rnidan turib, etagini silkibdi-da:

– E, padariga la’nat! – deb so‘kinganicha, yosh boladek arazlab chiqib ketibdi.

Unga nima bo‘ldi o‘zi? Kimdir bilib-bilmay ko‘ngliga tegib qo‘ymadimikan?

Shu payt to‘ng‘ich o‘g‘li gap nimadaligini payqab qolibdi. Shart o‘rnidan turib, televizorni o‘chiribdi-da, yerto‘laga olib tushib tashlabdi.

Haqiqatan ham, turli xususiy telekanallarda bir qorindan talashib tushgan egizaklardek o‘xshash mavzudagi, bir xil formatdagi “o‘zimizning seriallar”ni oila davrasida tomosha qilish odamni xijolatga solib qo‘yadi. Masalan, “Mening yurtim” telekanalida namoyish qilinayotgan “Sarvinoz” degan achchiq ichakdek cho‘zilgan serial syujetiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sarvinoz degani erga tegib ham sobiq oshig‘ining qutqusidan qutulolmaydi. Bir mahallar uni sevgan yigit avtofalokatga uchraganida, onasi bolam boyaqishning ruhi ko‘tarilsin, deb Sarvinozni uyiga chaqirtiradi. U ham “bag‘rikeng va tushungan” erini yetaklab nomahram jabrdiydaning oldiga bemalol kirib boraveradi. Qarangki, o‘z navbatida sobiq oshiqning xotinini ham boshqa bir kimsa jigarso‘xtalarcha sevadi va “visolsiz muhabbat” firog‘idan alamzada bo‘lib, tishini g‘ijirlatib, mushtini tukkanicha kelinposhshaning ortidan qolmaydi...

Bunday syujetlarni o‘ylab topadigan “ijodkorlar” insonlar taqdirini to‘ptoshdek sochib o‘ynashadi. Bu zamonaviy ertaklariga katta-yu kichik ishonadi, deb o‘ylashadi, shekilli.

“Nomus” deb atalgan serialdagi benomuslikni targ‘ib qilishda “Sarvinoz”ni ortda qoldiradigan voqea-hodisalarni ko‘rib, yoqa tutamlamay ilojingiz yo‘q. Mualliflarning bir-biriga tuflab yopishtirilgandek sayoz va sun’iy lavhalar bilan to‘lib-toshgan bunday seriallarni tomoshabinga taqdim qilishdan ko‘zlangan asl maqsadi nima, degan savol tug‘iladi. Nahotki, bor-yo‘q muddao tomoshabinlarni jalb etish-u reklamani ko‘paytirib, cho‘ntakni qappaytirish bo‘lsa. Hayotning achchiq-chuchugini totgan, oq-qorani tanigan tajribali odam-ku bu “ajivalar o‘yini”dan ensasi qotib, Ne’mat ota kabi etak silkib turib ketishi mumkin. Ammo hali suyagi qotmagan, oynai jahonda gapirilgan gap-u ko‘rsatilgan voqealarni mutloq hayot haqiqati sifatida qabul qiladigan yoshlar-chi? Ular kelgusida yengiltak qahramonlarga taqlid qilmasligiga hech kim kafolat berolmaydi.

Endi “Milliy” telekanalining ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqealarga boy “Yig‘lagan qizlar” nomli serialiga kelsak, shovvozlar turklarning axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi “Fazilat xonim va uning qizlari” filmining o‘zbekcha variantini suratga olib, anoyi tomoshabinning boshini aylantirib yotishibdi. Turkchasida Fazilatxonim va qizlarining boy odamlarni “ovlash” yo‘lidagi sarguzashtlari hikoya qilingan bo‘lsa, “Yig‘lagan qizlar” seriali ijodkorlari shu qadar bachkana va ishonarsiz sahnalarni suratga olishganki, hayratdan emas, nafratdan yoqa ushlaysiz.

Xo‘sh, uning mualliflari eri qamalib ketgan alamzada ayolning uch qizini “bozorga solib, qozon qaynatishi”ni qaysi o‘zbek oilasida uchratishgan ekan? Qarang-a, qamoqdan qaytgan ota o‘zining qimorbozlikka mukkasidan ketgan o‘rtancha qizini bilmasdan sevib qolarmish! “Qaysi o‘zbek xonadonidan qimorboz qiz chiqqan ekan?” deb iztirobga tushib turgan paytingizda uchinchi qiz “erga tegish operatsiyasi”ni boshlab yuboradi. Yaxshi ko‘rgan yigiti qolib, boyvachchalarga birin-ketin erga tegib chiqaveradi. Ikkinchi qiz singlisining sobiq sevgilisiga bexos ko‘ngil qo‘yganiga nima deysiz? Oiladagi to‘ng‘ich qiz turmushga chiqqaniga o‘n besh yil bo‘lsa-da, hamon befarzand. Onasi esa do‘q-po‘pisa qilib qo‘rqitish orqali toparmon-tutarmon kuyovidan doimiy ravishda pul undirib yuradi. Avvaliga u boyaqish kuyovni bepushtlikda ayblab, qizimni sendan ajratib olaman, deb dag‘dag‘a qiladi. Aslida esa, ayb qizida ekan. Pul desa iymonini sotishdan ham tap tortmaydigan ona o‘zi yollagan yengiltak ayol bilan kuyovining “to‘shak sahnalari”ni suratga olib, unga qarshi “kuchli dalillar” to‘playdi. Xo‘sh, qani bu yerda mantiq, o‘zbekona odob-axloq, uyat va andisha? Qaysi o‘zbek ayoli o‘z qiziga kundoshlik balosini ravo ko‘radi? Bu qo‘shxotinlilikning yashirin targ‘ibotimi? Shu o‘rinda bir savol: aziz tomoshabin, agar sizga bozorda yoki biror do‘konda muttahamlar o‘tmas matohini aldab tiqishtirsa, indamay rozi bo‘lib ketaverasizmi? Haqingizni talab qilmaysizmi? Serialchi shovvozlar esa bemalol ustingizdan kulib, o‘zlarining “aynigan” mahsulotini ongingizga tiqishtirayotgan bo‘lsa, o‘zingizni haqoratlanganday his qilmaysizmi? Menimcha, yuqoridagi kabi seriallarga boshqacha izoh berish mumkin emas.

Shu o‘rinda yana bir savol: kinoshunoslar, kinotanqidchilar qayerga qarashyapti? Taxminiy javob o‘zimda bor. Ular yoki ushbu seriallarga “tanqiddan tuban” deb qarashadi yoki ularning “antennasi” boshqa yoqqa qaragan.

Xullas, hozircha Ne’mat otaga o‘xshagan or-nomusli insonlarga sabr-toqat tilashdan boshqa ilojimiz yo‘qqa o‘xshaydi.

Mohigul NAZAROVA

AKS SADO

SOHIBQIRON SHA’NIGA GARD YUQMASIN

“Jadid” gazetasining shu yil 12-aprel sonida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti direktori, akademik Shuhrat Egamberdiyevning “O‘zbekistonda astronomiya: Renessansdan Renessansgacha” sarlavhali maqolasi e’lon qilindi. Ushbu maqolada o‘zbek astronomiya maktabining shonli o‘tmishi va bugungi rivoji haqida e’tiborga molik dalil va raqamlar tilga olinib, salmoqli fikrlar bildirilgan. Biroq hurmatli olimimizning buyuk Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga oid bir mulohazasi kaminada e’tiroz uyg‘otib, qo‘limga qalam olishga undadi.

Shuhrat Egamberdiyev shunday yozadi: “Tarixda ko‘plab shaxslarning nomlari haqoratomuz laqablardan kelib chiqqan bo‘lsa-da, keyinchalik asl ma’nosini yo‘qotib, tarixiy shaxsning ismiga aylangan. Xuddi shunday holat Amir Temurning “Temur lang” (Oqsoq Temur) laqabidan kelib chiqib, keyinchalik bu laqabning ma’nosi unutilib, Yevropada “Tamerlan”ga aylangan...” Bu fikrga ko‘p izohlar berish mumkin. Yana maqolani o‘qishda davom etamiz: “... Tamerlan” – bugunda Amir Temurning dunyoda qabul qilingan ismi. Biz buyuk bobokalonimizni Amir Temur deb atayveramiz, lekin uni boshqa xalqlar Tamerlan, deb atashsa, buni haqorat deb qabul qilmasligimiz kerak...”

Bu fikrga zinhor qo‘shilib bo‘lmaydi. Bu tarixiy haqiqatga ziddir. Avvalo, laqab hech qachon inson ismining o‘rnini bosolmaydi. Har bir kishining ota-onasi qo‘ygan ismi bo‘ladi va u muqaddas hisoblanadi. Kerak bo‘lsa, ism, nom – or-nomus masalasidir. Amir Temurning padari buzrukvori Amir Tarag‘ay va pirlari Shayx Shamsiddin Kulol bo‘lajak jahongir tug‘ilganida unga Temurbek deb ism berishgan. Uni birov o‘zgartira olmaydi! Sohibqiron davrida g‘alamis dushmanlar tarqatgan bu haqoratli laqab Amir Temurning o‘zini ham bag‘oyat g‘azablantirar edi. Shunday ekan, bu laqabni “haqorat deb qabul qilmasligimiz”ning o‘zi haqoratni tan olish bilan barobardir. Siz-u bizning, Amir Temur avlodlarining beparvoligi, “aytsa aytar” qabilida e’tiborsizligi tufayli bugun jahon ommaviy axborot vositalarida, ensiklopediyalarida Amir Temur turlicha nomlar bilan atab kelinyapti.

1992-yilda Yangiyo‘ldagi sharob korxonasi “Tamerlan” degan konyak chiqargan ekan. Insofli adiblarimiz darhol bunga qarshi o‘z fikrlarini bildirishgan va bu noxush qadamni to‘xtatishga erishgan edilar. Yaqinda buyuk Sohibqiron abadiy orom olib yotgan Samarqand shahrida ham shunday haqoratli nomda sharob ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, hatto bir tadbirkor korxona ochib, uni “Tamerlan” deb ham atabdi!

Xo‘sh, buni qanday tushunish mumkin? Bu shovvozlar bilib-bilmasdan ulug‘ jahongir bobomizning sha’nini oyoqosti qilayotganini nahotki anglamasa! Xo‘p, ularning bunga aqli yetmasa, shu ishga mas’ul bo‘lgan idoralar, hokimliklar qayoqqa qarayapti?

Shu o‘rinda tarixga bir nazar solaylik. 1404-1405-yillarda Samarqandga kelib Amir Temur qabuliga musharraf bo‘lgan, yurtimizda behad izzat-u e’zoz ko‘rgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham Sohibqironning laqabi masalasiga alohida e’tibor qaratgan edi. U o‘z kundaligida shunday yozadi: “...Temurbekning asl ismi biz ataganimizdek Tamorlan emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek ularning o‘z tilida “Temir podsho” degani, podsho esa ularning tilida “bek”. Tamorlan yuqoridagilarga batamom teskari ma’noni anglatadi. Uni tahqirlash ma’nosida Tamorlan, ya’ni oqsoq Temur, deb ataydilar...” (ta’kid bizniki – M.A). Mana, Yevropa fuqarosining Amir Temurga xolis bahosi!

Sohibqiron Amir Temur milliy davlatchiligimizning asoschilaridan biri, xalqimizning faxr-iftixori bo‘lgan buyuk tarixiy siymo hisoblanadi. Ul zotning bebaho shaxsiyati haqida fikr yuritganda hushyor bo‘lmog‘imiz, bu masalaga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondoshmog‘imiz va unga doimo hurmat-ehtirom ko‘rsatmog‘imiz shart. Toki ulug‘ ajdodimizning sha’niga, nomiga dog‘ tegmasin!

Muhammad ALI,
Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

SHARAFLI HAYOT YO‘LI

O‘zbek adabiyoti va madaniyati og‘ir judolikka uchradi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, taniqli ijodkor, jamoat arbobi Erkin Samandar 89 yoshida vafot etdi.



Erkin Samandar 1935-yil 22-martda Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi Navxos qishlog‘ida tug‘ildi. Ushbu tumandagi o‘rta maktabni tugatganidan so‘ng Xorazm viloyati pedagogika institutida, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)ning aspiranturasida tahsil oldi. Shundan so‘ng qator yillar O‘zbekiston televideniyesining “Yoshlik” studiyasida adabiy-dramatik eshittirishlar dasturi muharriri, “Xorazm haqiqati” gazetasi bosh muharriri vazifasida samarali faoliyat ko‘rsatdi. U 1990-1993-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari sifatida mamlakatimizda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi.

Erkin Samandarning “Amu jilolalari” deb nomlangan birinchi she’riy to‘plami 1966-yilda nashr qilindi. Shundan so‘ng o‘zining qariyb oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida turli janrlarda barakali ijod qildi. Uning ona Vatanga cheksiz ehtirom, xalqqa mehr va sadoqat kabi ezgu tuyg‘ular tarannum etilgan “Dunyoning yoshligi”, “Osmon to‘la nur”, “Vafo degan gavhar”, “Mening yigitlik vaqtim”, “Qabul soatlari”, “Sohildagi bolalar”, “Bahor oqshomlari”, “Sevgi fasllari”, “Bu bog‘ni qaysi bog‘ derlar”, “Sevgi kitobi”, “Va yana bahor”, “Ko‘ngil yoshligi” nomli she’riy to‘plamlari, “Osmonning tosh tulpori”, “Oltin sandiq”, “Qo‘shiq izlab”, “Samarqandni oshiqlar qurgan” kabi dostonlari adabiyot muxlislarining mehrini qozondi. Yuzdan ortiq she’rlari taniqli xonandalar tomonidan qo‘shiq qilib kuylanib, san’atimiz xazinasidan munosib joy egalladi.

U tarixiy mavzularga bag‘ishlangan “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq”, “Tangri qudug‘i”, “Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy”, “Sulton Jaloliddin”, “Quduq tubidan sadolar”, “Quyun yuzlari yoxud Ogahiy”, “G‘ayb qushlari” singari qissa va romanlari hamda turkum hikoyalari orqali yurtimizning shonli o‘tmishi va buyuk ajdodlarimizning ibratli faoliyatini xalqimizga yaqindan tanishtirishga munosib hissa qo‘shdi.

Erkin Samandar dramaturgiya sohasida ham qizg‘in ijod qilib, “Javohir”, “Ajdodlar qilichi”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Bashorat”, “Arabmuhammad”, “Dilda borim” deb nomlangan sahna asarlarini yaratdi. Uning ssenariylari asosida “Avaz O‘tar”, “Madraim Sheroziy”, “Uzoq yo‘l hikmatlari”, “Ming otlilar diyori”, “Ogahiy qo‘lini olgan rais”, “Xiva”, “Qum sayli”, “Taqdir yo‘llari” hujjatli filmlari suratga olingan.

Izlanuvchan adib O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faol a’zosi sifatida mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, adabiy jarayonlarni yangi bosqichga ko‘tarish hamda iste’dodli yosh ijodkorlarni tarbiyalashda faollik ko‘rsatdi.

Erkin Samandarning milliy adabiyotimiz va jurnalistikamizni rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni hamda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Jonkuyar adib, mehribon ustoz, samimiy va kamtarin inson Erkin Samandarning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

MULOHAZA



TOG‘LAR ORTIDA HAYOT BOR!

Suitsid, ya’ni o‘z joniga qasd qilishdek mudhish fojia haqidagi ushbu maqola qahramonlarimizning achchiq qismatiga oid hikoyalar asosiga qurilgan. Bunday sho‘rqismat ayollarni shartli ravishda guloyimlar deya ataymiz. Ayanchli voqelarni tasvirlash orqali o‘quvchining hissiyotlarini junbishga keltirish fikridan yiroqmiz, balki insonni o‘z joniga qasd qilish darajasigacha olib boradigan omillarni ochib berishga harakat qilamiz. Zero, gulday umrining bahorida ayamajuz urgan bu oy qizlarning ayanchli qismati nainki ularning yaqinlari, balki butun bir jamiyatning og‘rig‘i hisoblanadi. Atoqli rus yozuvchisi Dostoyevskiy “Men inson dardining oldida tiz cho‘kaman”, degan edi. Darhaqiqat, odam borki, g‘am-tashvishi, armon-anduhi bor va ular bedavo musibatga aylanmasligi uchun yonimizdagi insonlarning taqdiriga befarq qaramasligimiz kerak.

1-GULOYIM

U ammamning qo‘shnisi edi. Qishloq to‘ylarida raqqosalik qilardi. Men bir to‘yda Guloyim charx urib xirom aylagani, eri esa “qistir-qistir”dan tushgan pullarni bemalol yig‘ishtirib olganini ko‘rgandim. Odamlar ularning ikkovini ham yoqtirmas edi. Aslida bir qarashda ular to‘rt farzandi bor binoyidek oila edi. Faqat eri bot-bot Guloyimni ayovsiz kaltaklashga odatlangandi. Devor osha bechora ayolning alamli oh-faryodi eshitilsa-da, hech kim oraga tushmasdi. Bir kuni ammam bebosh qo‘shnisi xotinini 7-sinfda o‘qib yurgan kezlarida o‘g‘irlab kelib, yuziqora qilgani va to‘y-tantanasiz uylanib olgani haqida aytib qoldi. Gap orasida, bu qishloqda Guloyim kabi pokiza, mehnatkash va tartibli ayolni topish qiyin, dedi. Bu – raqsga havasmand ayol haqida men eshitgan birdan-bir yaxshi gap edi.

Kutilmaganda radioda Guloyimning eri yo‘qolib qolgani haqida xabar yoyinlandi. Ko‘p o‘tmay uning jasadini Zarafshon daryosidan topishdi. Guloyim gumonlanuvchi shaxs sifatida qo‘lga olindi. Aytishlaricha, tergovda qotillikni amalga oshirish uchun u ikki odamni yollagani, uchalasi birgalikda erini suvqog‘oz bilan bo‘g‘ib o‘ldirganini tan olgan emish. Marhumning yettisi kuni qotillarni voqea joyiga olib kelishdi. Ma’rakaga tumonat odam yig‘ildi. Hatto janozaga kelmaganlar ham Guloyimni tomosha qilish uchun hoziru nozir bo‘ldi. Ayol birgina iltijosi borligi, ya’ni bolalarining diydoriga mushtoq ekanligini ma’lum qildi. Qonun himoyachilari odamlarning noroziligiga qaramay, uning iltimosini bajardi. Guloyim to‘rt bolasini bag‘riga bosganida ko‘ksidan dunyoni titratib yuboradigan dahshatli o‘kirik otilib chiqdi. Bu nolalar zamirida bir ayolning yillar davomida boshiga tushgan jabr-zulmlar alami, tutday to‘kilgan sha’nining yo‘qlovi, xazon bo‘lgan orzularining aytimi bor edi.

Ayol o‘n to‘rt yil-u yetti oyga qamaldi. Norasidalar bolalar uyiga topshirildi. Bir necha yillardan so‘ng amnistiyaga tushib, jazoni muddatidan oldin o‘tab qaytgan Guloyim birinchi galda bolalarini yetimxonadan chiqarib oldi. Lekin hayot unga kulib boqmadi. Ish axtarib eshikma-eshik yurdi, hech kim uni yaqiniga yo‘latmadi. Ilgari otarchi deb irganishgan bo‘lsa, endi uni qotil deb yomon ko‘rishdi. Baxtiqaro ona kunlardan birida tun qorong‘isida og‘ilxonada o‘zini osib qo‘ydi...

2-GULOYIM

Guloyimning otasi nihoyatda badavlat odam edi. U yolg‘izgina qizini “allada aziz, to‘rvada mayiz” qilib ulg‘aytirdi. Og‘zidan chiqqanini muhayyo qildi. Qizini juda erkalatib yuboryapti, degan gap-so‘zlarni eshitganida ensasi qotib, o‘g‘lim ham, qizim ham shu, bolamga ataganimga boshqaning nima ishi bor, deya lab jiyirdi.

Qiz ulg‘ayib, oqi oqqa, qizili qizilga ajralganida qo‘shni qishloqlik Nizomga ko‘ngil qo‘ydi, sevib-sevildi. Bir kuni ishdan kechroq qaytgan ota derazasi tagida ikki yoshning suhbatlashib turganini ko‘rdi. Qizidan yigitning kimligini bilgach, u sening tirnog‘ingga ham arzimaydi, dedi qat’iy ohangda. Tantiq o‘sgan Guloyim ham otasining yuziga tik qarab, men tegsam, faqat shu yigitga tegaman, deb javob qildi. Ota esa g‘azab ustida qizining yuziga ketma-ket shapaloq tortib yubordi. Guloyim o‘krab yig‘lagancha uyga otilib kirib, eshikni ichkaridan tambalab oldi. Allamahalgacha ostonadan nari ketmagan onasini-da xonasiga kiritmadi. Erta tongda eshikni buzib kirgan ota-ona qizining muzday qotgan jonsiz tanasiga duch kelib, dahshatga tushishdi. Guloyim otasiga achchiq qilib sirka ichgan, ehtimolki, qahri qattiq padarini qo‘rqitib qo‘yish ilinjida o‘z hayotiga nuqta qo‘ygan edi.

3-GULOYIM

Yolg‘izlik qildi Guloyim. Uni suyaydigan va u suyanadigan aka-ukasi, tog‘a-pochchasi yo‘q edi. Qaynonaning xizmatida o‘n guli so‘ldi. Biri-biridan tildor qayinopalar hech kimi yo‘q Guloyimni nazar-pisand qilishmadi. Kunda-shunda “cho‘qilab ketishdan” tiyilishmadi. Er ham o‘ynoqi chiqdi, yuzing-ko‘zing demay oyimbozlik qildi. Bunga ham qanoat qilmay, Guloyimni urish, xo‘rlashdan tiyilmadi.

Ayol juda bardoshli edi, farzandlaridan umid qildi. Bolalarim voyaga yetsa, hammasi yaxshi bo‘ladi, dedi. Ammo dono xalq “otaga qarab ot chopar, onaga qarab to‘n bichar” deb bekorga aytmagan ekan. Ko‘p aziyatlar ichida o‘sgan katta o‘g‘il “psixotropga o‘tirdi”, bezorilar to‘dasiga kirib qoldi. Qimor o‘ynab, butun oilani notinch qildi. Guloyim o‘g‘lini qutqaraman deb qon yutdi. Er va qayinopalarga esa mavzu topilgan, “gusala qochsa, inakni bog‘la”, deb barcha aybni Guloyimning yelkasiga yuklash va uni malomat qilishdan nariga o‘tishmasdi. O‘sha kezlarda mushtumzo‘r er maishatga mukkasidan ketib, piyonistaga aylangan, ikki qizining qismati ne kechishi uning xayoliga ham kelmas edi. Topganini ichib, ro‘zg‘orini kasod qildi. Oilaning mashmashasi tugamadi. Nosog‘lom muhitda o‘sgan bolalarining ozori ham Guloyimni cho‘ktirdi. Alal-oqibat hech kimga hech narsa demay katta yo‘lga chiqdi-yu, shitob bilan kelayotgan mashinaning tagiga o‘zini otdi.

Ay-y, Guloyima-a-a!.. Axir huv tog‘larning ortida ham hayot bor edi-ku. Nega o‘z joningga qasd qilishdan boshqa yo‘l qidirmading?.. Nega u tog‘larning cho‘qqilariga olib ketar dovonlarga chiqmading? Sizchi, ey, yaxshilar? Sizlar nega jim o‘tirdinglar? Qo‘shningizning uyidagi notinchlik nega sizni bezovta qilmadi? Ularning nima deb baqirishayotganiga quloq tutdingiz-u, tashvishlariga bir qur nazar tashlamadingiz. Dunyoda odamgarchilik, mehr-oqibat degan yozilmagan qonunlar ham borligini unutdingizmi? Axir, ijtimoiy tarmoqda bolalari va o‘zini to‘rtinchi qavatdan pastga tashlagan ayolning fojiasiga munosabat bildirdingiz-ku. O‘shanda mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shnilar qayoqqa qarayapti, deb yozgan siz emasmidingiz?

Afsuski, biz bugun faqat muhokamalargagina ruju qo‘ydik. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili yer yuzida qariyb bir million odam o‘z joniga qasd qilish oqibatida dunyodan ko‘z yumar ekan. Agar inson o‘laroq qalbimizni uyg‘otsak, ana shu bir millionga yaqin odamning hayotini saqlab qolishimiz mumkin-ku.

Donishmandning aytishicha, dushmanlardan qo‘rqmaslik lozim, nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Biroq befarq odamlar nihoyatda xatarlidir. Chunki ularning jim va beparvo qarab turishi oqibatida yer yuzida xiyonat va aldovlar, turli razilliklar urchiydi.

Toki shunday ekan, dardginangni olay, Guloyim, sen ham o‘zingni qo‘lga ol, bu g‘amlar o‘tkinchi. Axir, senga zimiston bo‘lib tuyulayotgan oyning o‘n beshi, albatta, yorug‘... Axir, sen ham uzoq va baxtli yashashga haqlisan!

Muhayyo RUSTAM qizi

E’TIROFNI SOTIB OLIB BO‘LMAYDI

Boshlanishi 1-sahifada.

Esimni tanibmanki, taniqli kishilarning farzandi, mashhur qo‘shiqchining ukasi bo‘lganimdan, keyinchalik jigarlarim ham el og‘ziga tushgan san’atkor ekanidan g‘ururlanib yashadim. Dadam taniqli opera xonandasi, kamgap, mehribon, kamtar, ayni paytda zukko, talabchan inson bo‘lib, madaniyati shunchalik ediki, hammani sizlab gapirardilar. Zarurat tug‘ilganda tunukachilik, duradgorlik, pazandalik ham qilib ketaverardilar. Ko‘kchada buvamiz Zokir oqsoqoldan qolgan kattagina bog‘imiz bo‘lardi. Dadam bo‘sh qoldi deguncha bog‘dagi ishlar bilan shug‘ullanardilar. Bu bog‘ o‘ziga xos san’at xiyoboni ham bo‘lib, o‘z davrining xushxon insonlari to‘planib, latif davralar qurishardi. Komiljon Otaniyozov, Mukarramaxonim, Nazira Ahmedova, Shukur Burxonov, Xoji Qurbon Nazarov kabi san’atkorlar bilan dilkash suhbatlarning guvohi bo‘lib o‘sganman.

Onam Muqimiy nomidagi musiqali teatrda aktrisa edilar. “Tohir va Zuhra”, “Ravshan va Zulxumor”, “Alpomish”, “Xolisxon”, “Nurxon”, “Oftobxon” kabi spektakllarda esda qolarli rollar ijro etganlar. Shu bilan birga, laparlarni mohirona kuylardilar. Onamning fe’llari dadamning teskarisi edi. Farzandlarga qattiqqo‘l, nihoyatda talabchan, bir so‘zli ayol edilar. Biz hazillashib onamni “oila badiiy kengashining raisi” derdik. Muhimi, onam har birimizning qobiliyat va layoqatimizga e’tiborli bo‘lib, yilt etgan uchqunni ilg‘asalar, shu jihatni rivojlantirishga rag‘bat berardilar. Mahallada ham juda faol edilar. Ota-onam bir umr xalq orasida bo‘lib, hayot kitobidan betimsol hikmat yig‘gan edilar. Ularning o‘gitlari bizga hanuzgacha asqotib kelyapti.

– Siz mahallada yashagansiz, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlaridan xabardorsiz. Bugungi kunda Prezidentimiz milliy qadriyatlarimiz, urf-odat, an’analarimizning asrab-avaylab saqlanishida, yoshlar tarbiyasida, umuman, xalqimiz hayotida mahallaning o‘rniga alohida e’tibor berayotganlari bejiz emas. Sizning bu boradagi fikrlaringizni bilmoqchi edik.

– Mahallani bemalol hayot maktabi, hayot dorilfununi deyish mumkin. Mahallada olgan darsni boshqa hech qaysi maktab yo oliy o‘quv yurtida ololmaysiz. Oddiy salomlashishdan tortib, odamlar bilan muomala-munosabat qilish, qo‘ni-qo‘shnilarning holidan xabar olish, to‘y-ma’rakalar, hashar uyushtirish... Eh-he, yoshligimizda mahalla hayotining har bir kuni esda qolarli voqealar bilan to‘la bo‘lgan. O‘sha paytlarda yaqin qo‘shnilar bir-birini tansiq taomlar bilan siylardi, hovlisida qaysi meva pishsa, atrofdagilarga ulashardi. Bolalarning ham birga o‘ynaydigan o‘yinlari juda ko‘p edi. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona”, degan hikmat mahallaning qadriyati bo‘lgan. Afsuski, tezkor davrda ko‘p yaxshi udumlarni boy berib qo‘ydik. Biz, bolalar, bir vaqtlar “bog‘da sharoit yo‘q, dom yaxshi”, desak, dadam jilmayib: “hali bitta yoz, bitta qish o‘tsin, o‘shanda bilasan”, derdilar. Haqiqatan, vaqt – oliy hakam. Bugun mahallamni qo‘msab chiqargan xulosam shuki, mahallada bilgan va o‘rganganlaringni boshqa hech qanday kitobdan topolmas ekansan... Lekin hozirgi paytda aynan mahalla va uning obodligi masalasiga hukumat darajasida e’tibor berilayotganini ko‘rib, haqiqiy o‘zbekona udumlar o‘z mavqeini tezda tiklab olishiga ishongim keladi.

– Menimcha, kasb tanlashda ota-onaning o‘rnagi muhim ahamiyatga ega.

– Shu topda dadamning bir gaplari yodimga tushdi: “He, senlarni qara, – degan edi u kishi menga, – hech qaysing boshqa bir tuzukroq kasb tanlamadilaring. Mana, sening qo‘llaring nozik, jarroh bo‘lishing mumkin edi”. O‘shanda nega bunday deganlariga hayron bo‘lgandim. Dadam aytgan gapning mag‘zini keyinroq tushundim. Sababi, u kishi san’at yo‘li mashaqqatli ekanini, uning qattiq nonini yeyish oson emasligini yaxshi bilganlar. Bizning o‘rtamiyona ijodkor bo‘lib qolishimizni istamaganlar. Eng muhimi, ota uyida ko‘rganlarimiz, eshitganlarimiz biz uchun hayot maktabi vazifasini o‘tadi. Ayniqsa, Botir akamning taqdiri...

Men o‘zbek milliy estrada san’atining asoschisi bo‘lgan Botir Zokirovning ukasi ekanimdan faxrlanaman. Akam haqida juda ko‘p yozilgan, hujjatli filmlar suratga olingan. Suhbatlarimizdan birida akam shunday degan edilar: “Estrada san’atining asosi O‘zbekistonda qadimdan shakllangan. Uning ildizi o‘zbeklarning masxarabozlik, dorbozlik, askiyachilik, ya’ni maydon tomoshalariga borib taqaladi. Zamonaviy san’at sifatida Tamaraxonim ijrosidan boshlangan”. E’tibor bersangiz, maqomga nisbatan olganda, estradaga yengil janr deb qaraladi. Dadam va akam esa “Estrada – juda og‘ir janr. Mas’uliyati nihoyatda yuqori. Sahnaga chiqib qo‘shiq kuylash madaniyati tuflining ipini bog‘lashdan boshlanadi”, deyishgan.

Shubhasiz, bu janrga qiziqishimning ilhomchisi ham, ijod yo‘limning boshlanishida hamfikr, hamdard, yo‘lboshchi bo‘lgan ham Botir akam edi. Faoliyatim davomida akamning “Arosatdan Xudo saqlasin”, degan so‘zlari men uchun mezon bo‘lib kelyapti. Xabaringiz bor, u kishi nafaqat xonanda, balki yaxshigina rassom ham bo‘lganlar. Botir akam haqida ishlangan hujjatli filmda iste’dodlarining bu qirrasi ham yoritilgan. Hikoyalari, she’rlari ham dilga yaqin. “So‘g‘d elining qoploni” nomli librettolari asosida Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida spektakl ham sahnalashtirilgan. Akam har qancha e’tirofga arziydigan haqiqiy inson, haqli ravishda jahon estrada sahnasi yulduzi edilar. Vafot etganlarida (1985-yil edi) sobiq Sverdlov konsert zaliga vidolashish uchun yurtimizning barcha taniqli insonlari, akamning minglab muxlislari to‘planishgan. Xalqimizning sevimli san’atkori Tamaraxonim ko‘zlarida yosh bilan: “Botir menga “oyi” deb murojaat qilardi. Ha, u buyuk san’at bilan mening nikohimdan tug‘ilgan o‘g‘lim edi”, degandi. Kosmonavt Yuriy Gagaringa “O‘zbekistonni qanday tasavvur qilasiz?” deb savol berishganida “O‘zbekiston deganda ko‘z oldimga qo‘shiqchi Botir Zokirov va uning quyoshli yurti keladi. Uning ko‘zlarida O‘zbekistonni ko‘raman”, deb javob bergan. Umrining ko‘p qismini xastalik bilan o‘tkazib, 49 yoshida dunyodan ko‘z yumgan bo‘lsa ham akamning nomi, qo‘shiqlari xalqimiz qalbida abadiy yashab qoldi. Ha, Botir Zokirov o‘zbek milliy estradasi osmonida charaqlagan yorqin yulduz bo‘lib bo‘y ko‘rsatdi va bu buyuk fenomen hamon o‘zining so‘nmas nurlari bilan qo‘shiqchilik olamimizni yoritib turibdi.

– Farrux aka, ota-onangiz teatrda faoliyat yuritishgan. Lekin beshta farzand estrada san’atini tanlagan holda birgina Jamshid Zokirov ota-ona izidan ketdi...

– To‘g‘ri aytasiz. Ko‘pchiligimiz estrada yo‘nalishini tanlashimizda, menimcha, Botir akamning hissalari katta. Luiza opamqizi Indira Gandi bilan birga O‘zbekistonga kelishgan. Alisher Navoiy nomidagi teatrda bo‘lib o‘tgan konsertda Luiza Zokirova hindcha “Bayju Bavra” filmidan qo‘shiq kuylagan. O‘shanda Indira Gandi sahnaga ko‘tarilib, opamning yoqasiga fil suyagidan ishlangan chiroyli to‘g‘nog‘ichni qadab qo‘ygani hamon ko‘z oldimda turadi. Ukam Navfal, afsuski, betob bo‘lib oramizdan juda erta ketdi. U ham qo‘shiq aytar, ham go‘zal suratlar chizardi. Mendan ikki yil keyin tug‘ilgan ukam Jamshidni xalqimiz yaxshi taniydi. U yoshligidan muloyim, kamsuqum edi. Xalqimizda “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, degan ibora borku, nazarimda, bu gap Jamshid haqida aytilgandek. Qayerda bo‘lmaylik, dadamga “Shu Jamshid o‘g‘lingiz boshqacha”, deyishardi. Fe’l-atvori, insonparvarligi, odamshavandaligi, hammaning holidan xabardor bo‘lib turishi dadamga o‘xshardi. Yaxshi fazilatlari behisob edi rahmatlining. Karim Zokirovning munosib farzandi edi. O‘zbek milliy akademik drama teatrining yetuk aktyorlari safida rafiqasi Gavhar Zokirova bilan o‘zingizga ma’lum bo‘lgan “san’at tanazzuli” davrini birgalikda yengib o‘tib, millatning fidoyisi sifatida teatrimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.


Eng kichigimiz Ravshan Zokirov 1951-yilda tug‘ilgan. Qo‘shiqlari bilan nufuzli tanlovlarda qatnashib, yuqori o‘rinlarga sazovor bo‘lgan. Lirik mavzularda suratlar va portretlar chizadi. “Botir Zokirov jamg‘armasi”ning direktori sifatida sulolamizga taalluqli tadbirlarda faol.

– Nazarimda, mavzumiz ravishi o‘zingizga keldi. Mana, qariyb ellik besh yil mobaynida muxlislarga zavq-shavq ulashib kelyapsiz. Menimcha, bugun yetuk san’atkor sifatida dunyoga tanilgan Farrux Zokirovning bolalik xotiralari ham ibratli bo‘lsa kerak.

– Nimadan boshlasam ekan... Men sho‘x, o‘yinqaroq, ayni paytda, romantik bola bo‘lganman. Bu juda ko‘p kitob o‘qiganimdan bo‘lsa kerak. Hozir ham kitoblar mening do‘stim, maslahatchim. Bolaligimda shanba, yakshanba kunlari dadam ishlagan teatrga borardik. Birinchi bor tomoshaga tushganimda mo‘jizaviy olamga kirib qolganday bo‘lganman. O‘shanda bizga teatrning yon



ning qo‘ng‘iroqdek ovozi borligini ham akam ilg‘ab, o‘z davrida muxlislar orasida mashhur bo‘lib ketgan qo‘shiqlari yaralishiga ilhomlantirgandi. Luiza opam hind filmlaridagi qo‘shiqlarni jozibali, go‘zal ohangda kuylardi. Opam 15-16 yosh paytlarida Hindiston Respublikasining rahbari Javoharla’l Neru tomonidagi rasmiy balkondan joy teggandi. Bu yerdan orkestr “o‘ra”si ko‘rinmas ekan. “O‘ra” o‘rtasida yonib turgan chiroqqa hayratlanib qarab tursam, uning yoniga nurli chehrasi kulib turgan oppoq sochli bir odam kelib, qo‘lidagi tayoqchani ko‘tardi. Shu zahoti zal bo‘ylab g‘aroyib musiqa tarala boshladi. Mendek olti yoshli bola uchun bu chinakam g‘aroyibot edi. Uyimizda plastinkalar juda ko‘p bo‘lib, deyarli har kuni maqomlar, ashulalar, yevropa kuylarini tinglardik. O‘sha kuni uyga kelgach, ko‘rganim mo‘jizadan ta’sirlanib, novdadan qilingan tayoqchani ushlab, oldimdagi toshoynaga lampani qo‘yib olib, dirijyorlikni mashq qildim. Bu hol anchagacha davom etdi. Onam bolalarcha qiziqishimni qo‘llab, mashg‘ulotimni rag‘batlantirdilar. Aytganimdek, bolalikda qiziqqanim “sehrli tayoqcha” tufayli (aytgancha, keyinroq o‘sha oq sochli, nuroniy odam ulug‘ san’atkor Muxtor Ashrafiy ekanini bilganman) dirijyor-simfonist bo‘lishni orzu qilardim. Lekin bora-bora yuragim estradaga tortib ketdi.



1957-yili Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan jahon talaba va yoshlar festivalida birinchi marta rasmiy suratda sahnaga chiqqanman. 8-sinfni tamomlagach, musiqa bilim yurtiga o‘qishga kirdim. Aynan shu dargohda musiqa olami juda keng va murakkab dunyo ekanini tushunib yetdim. Estrada san’atiga haqiqiy qiziqishim shu yerda boshlandi.

Qo‘shiq kuylashni boshlaganimda xayolimda hamisha “Botir akamga o‘xshab ashula yoza olamanmi?” degan savol aylanardi. Akam ijodimni kuzatib, “Bular hali xom, bitta yaxshi ashula yaratish uchun yillar kerak bo‘ladi, sen hozir faqat o‘qishing kerak”, derdilar. 1969-yili Toshkent davlat konservatoriyasining xor dirijyorligi fakultetini tugatib, ukam Ravshan bilan Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutida tashkil etilgan talabalar vokal ansambli safiga qo‘shildik. 1970-yil dekabr oyida orkestr rahbari, kompozitor Yevgeniy Shiryayev g‘oyasi asosida teatr san’ati instituti va konservatoriya talabalaridan iborat ansambl tashkil topdi. Eson Qandov, men va akam Navfal Zokirov shu yerda yakkaxon ijrochi edik. Ana shu paytda Moskvadan Yevgeniy Maslyakov kelib bizni o‘sha davrda juda mashhur bo‘lgan “Allo, talantlarni izlayapmiz!” deb nomlangan tanlovga taklif qilgan. Ustoz Anatoliy Qobulov repetitsiyalarimizda yordam berardi. Bir safar Shahboz Nizomiddinov bilan birga kompozitor Enmark Solihovning “Qiz bola” qo‘shig‘ini ayta boshlashimiz bilanoq, Anatoliy Qobulov “Ansamblning nomini topdim, “Yalla” bo‘ladi”, deb qoldi. Haqiqatan ham ismi jismiga mos bo‘lgandi. O‘sha kungi holatimiz hech yodimdan chiqmaydi: hammamiz quvonchdan sahnada yugurib yurganmiz. Xalq ijodi bitmas-tuganmas boylik ekanini ansambl tuzilgandan so‘ng yanada ko‘proq his qildim. Repertuar tuzishda onamning yordamlari katta bo‘lgan. Teatrdagi faoliyat, mahalladagi, uydagi ishlardan ortib, ansamblimiz bilan birga safarlarga borardilar. Hamisha “Sahnada 3-4 daqiqadan ortiq turib qolma, tomoshabinni toliqtirma”, derdilar.

Aytib o‘tganimdek, o‘sha paytlari hamma havaskor san’atkorlar kabi tezroq tanilishni, ko‘zga ko‘rinishni xohlardim. O‘zim yaratgan qo‘shiqlarni dastlab Botir akamga eshittirib, “Shuni aytsangiz-chi, aka”, deb iltimos qilardim. U kishi mening ruhimni sindirmaslik uchun avaylab, shu bilan birga, o‘zlariga xos talabchanlik bilan “Mayli, o‘ylab ko‘raman”, deb javob qaytarardilar. Shu tariqa yillar o‘tdi. Kechagidek esimda, 1974-yili oilaviy shanba-yakshanba yig‘ilishlarimizdan birida Botir akam “Majnuntol” qo‘shig‘ing yaxshi chiqibdi, aytsam maylimi”, deb qoldilar. Bu gap men uchun kutilmagan mukofot, eng qadrli e’tirof edi. Xursand bo‘lib ketdim, ko‘nglim ko‘tarildi. Lekin men ham sir boy bermay, u kishining o‘ziga xos ohanglarida “Mayli, o‘ylab ko‘raman”, deb hazilomuz javob qildim.

– Demak, shu bilan “Yalla” va Farrux Zokirov ijodida yangi davr boshlandi...

– 1979-yili ansamblimizda biroz qiyinchilik yuzaga keldi. Ayrim sabablarga ko‘ra, guruh tarqalib, Shahboz ikkimiz qolgandik. Shunda “Botir aka, keling, birga ishlaylik”, dedim. Rozi bo‘ldilar va shu yildan ansamblning ikkinchi umri boshlandi. Ikkinchi to‘lqin boshqacha bo‘ldi, bu burilish oddiy emas edi. O‘sha yili Yalta shahrida Estrada qo‘shiqlari festivali bo‘lib o‘tdi. Botir akam hay’at a’zosi edilar, birga bordik. O‘sha yerda Rustam Ilyosov bilan tanishganman. Botir akam bilan birgalikda “Yalla”ga badiiy rahbar bo‘lishni taklif qilganmiz. Javobini yigirma kuncha kutdik, oxiri rozi bo‘ldi. Shu odamning kelishi ansamblga katta yordam berdi. Yonimda Alisher To‘laganov ham bor edi. O‘zbekona oilada tug‘ilib-o‘sgan Rustam milliy kuy-qo‘shiqlarni yaxshi bilardi. Mana, hozirgi kungacha Abbos Aliyev, Javlon To‘xtayev, Temur Xoliqov bilan birgalikda ijodda davom etib kelyapmiz. Repertuarimiz ansambl nomidan kelib chiqqan holda, rosmana xalqona, oddiy, hayotiy, milliy mentalitetimiz bilan bog‘liq qo‘shiqlardan tarkib topgan.

– Farrux Karimovich, siz bugun nafaqat estrada, balki san’atimizning yorqin yulduzi sifatida bu sohaga baho berishga ma’naviy haqlisiz. Ayting-chi, munosib izdoshlaringiz bormi? San’atimizning eng katta muammosi nimada deb o‘ylaysiz?

– Estrada san’atimizda o‘ziga xos ijro yo‘liga ega, milliylikdan chekinmay yaxshi asarlar yaratayotgan yoshlar kam emas. Turli bayram tadbirlarida ko‘ryapmiz ularni. Jonli muloqotga, jonli ijroga hech narsa teng kelolmaydi. San’atkorman deb sahnaga chiqdimi, ovoz imkoniyatlari shunga yarasha bo‘lishi kerak. Ayniqsa, konsert saroylari, uchrashuvlardagi chiqishlar jonli ijroda o‘tgani ma’qul. Ayni paytda fonogrammaga ruju qo‘yish kuchayayotgani ham bor gap. Ba’zan o‘zimiz ham fonogrammadan foydalanamiz. Konsert bergani, aytaylik, chekkaroq joylarga borganimizda, sharoit yo‘q vaqtlarda, texnik asbob-uskunalarni olib yurishning imkoni bo‘lmaganda fonogramma qo‘l keladi. O‘shanda ham fonogrammada, ham jonli ijroda kuylaymiz. Umuman, bu borada vijdonan munosabat zarur. Muxlisni hurmat qilish shart.

Ne zamonlarni, qanday insonlarni ko‘rmadim. Izlandik, xulosa chiqardik. Nokamtarlik bo‘lmasin-u, ijodiy yutuqlar ongga ham bog‘liq ekan. Xalq e’tirofi degan yuksak unvonni pulga sotib olib bo‘lmaydi.

Bugungi to‘ylarimizda haqiqiy milliy institutimiz – kelinlarning boshiga oq ro‘mol tashlab davraga kirib kelishi, to‘ylarda “Yor-yor”, “To‘ylar muborak”, “Hay-hay o‘lan” kabi qo‘shiqlar yetishmaydi. To‘g‘ri, o‘zim ham “Kelibdi-yo, kelibdi”ni aytaman. Buni zamon talabi, deyishadi. Lekin bular ongga bog‘liq, millatni hurmat qilish, o‘zligini yo‘qotishga yo‘l qo‘ymaslikka bog‘liq. Agar bu borada Botir akam aytgan “arosatdan” qutulmas ekanmiz, milliy qadriyatlarimiz ildiziga bolta urilaveradi. Bugun gastrol-konsert faoliyati, jonli uchrashuvlar yetishmaydi. Bularning bari katta maktab. Yoshlar bu maktablarni ko‘rishi, xalq imtihonidan o‘tishi kerak. Aytaylik, talaba institutni tugatdi. Xo‘sh, endi qayerga boradi? Iste’dodga yordam kerak. Iste’dodsizlar o‘zi yorib chiqadi. Yurtimizda estrada orkestrining bo‘lishi, estrada san’atining yuksak mavqega erishishi bizning juda katta yutug‘imiz. Botir akam Tamaraxonim boshlab bergan yo‘lni davom ettirib, katta bir maktab yaratdilar. Maktab bo‘lganda ham professional amaliy maktab edi bu. Konservatoriyada ham, san’at, madaniyat institutlarida ham estrada o‘qitilmasdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan ikki yil avval akam tavalludining 85 yilligi munosabati bilan Botir Zokirov nomidagi estrada san’ati instituti tashkil etildi. Men bugun shu institutning professori ekanimdan faxrlanaman. Bundan tashqari, yaqin kunlarda Botir Zokirovga bag‘ishlab o‘rnatilgan mahobatli haykalning ochilish marosimini o‘tkazish rejalashtirilgan. Hademay Toshkent shahri xaritasida u kishining nomida prospekt paydo bo‘ladi. Bunday e’tibor, albatta, bizga kuch-quvvat, rag‘bat beradi.

Xursand qiladigan yana bir jihat shuki, bugun Zokirovlar sulolasining munosib davomchilari yetishib kelyapti. Dastlab Botir akamning o‘g‘illari Baxtiyor va Bahodir Zokirovlar ijodga kirib kelishdi. Afsuski, Baxtiyorning umri qisqa ekan. Bahodir yaxshigina rassom, she’r yozadi, kuylar bastalaydi. Jamshidning farzandlari Ohista va Javohir Zokirovlar ham san’atda o‘z o‘rniga ega ijodkorlar. Shu kunlarda Botir akamning nabiralari Sayyora Zokirova ikkovimiz “Buva va nabira” deb nomlangan duet-qo‘shiqni konsertda ijro etishga tayyorlanyapmiz. To‘g‘ri, sulola yoshlari hali olamshumul dovrug‘ qozonib ulgurgani yo‘q. Lekin ulardan umidimiz katta. Xullas, hayot davom etyapti. Biz, “Yalla” ansambli ijodkorlari esa muxlislarni xursand qilish yo‘lida izlanishdamiz.

Gulchehra UMAROVA
suhbatlashdi.

DOIMIY HARAKATDAGI HAYOTIY DASTUR

Boshlanishi 1-sahifada.

TARIX – O‘TMISHDAN SO‘ZLAB, KELAJAKNI ANGLATADI

Bugungi kunda tavallud sanasining 149 yilligi nishonlanayotgan Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘zbekistonning yaqin tarixida chuqur iz qoldira olgan va butun umrini millatni uyg‘otish g‘oyasiga bag‘ishlagan, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar etgan buyuk shaxs, Turkistondagi jadidlik harakatining g‘oyaviy rahnamosi va shubhasiz, yetakchisi sifatida e’tirof etilishga loyiq.

Jadid adibi, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy tarixda bo‘lib o‘tgan voqealarni chuqur mulohaza qilish, undan o‘rnak olish va eng asosiysi – yo‘l qo‘yilgan kamchilik yoki xatolarni qayta takrorlamaslikka ishora qilib “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rmak xayrlik, deydilar” degan sermazmun gapni aytgan edi. Darhaqiqat, Sharq jadidligining g‘oyaviy otasi bo‘lgan Ismoil G‘asprali ta’biri bilan aytganda, tarix o‘tmishdan so‘zlab, kelajakni anglatadi. Ya’ni, insonlar o‘z tarixini, boshdan kechirganlarini o‘rganish va tahlil qilish barobarida kelajakda yana nimalar boshiga tushishi mumkinligini taxmin qilishni, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslikni o‘rganadi.

UCHINCHI RENESSANSNI JADIDLAR AMALGA OSHIRISHI MUMKIN EDI

Oxirgi yillarda katta minbarlardan yangrayotgan “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans” kabi tushunchalar mamlakatimiz hozirda ijtimoiy-siyosiy jihatdan yangi bir bosqichga ko‘tarilayotganidan darak bermoqda.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati chor Rossiyasi qo‘l ostida bo‘lgan Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida siyosiy xaritada paydo bo‘lgan 1991-yildan hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlarda jadidlik harakatining mohiyati turlicha tadqiq va tahlil qilindi, uning ko‘lami hamda harakatga keltirgan shaxslar hayoti, ijodi, jamiyatga bo‘lgan ta’siri masalalari yoritildi. Ammo bu mavzu hanuz to‘laligicha ochib berilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ziyolilarga tabrigida jadidlik harakati, shaxslari haqida to‘xtaldi va “Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi”, degan fikrni aytib o‘tdi. Darhaqiqat, agar tarixiy vaziyat imkon berganida edi, yurtimizda ana shu Uyg‘onish fenomeni amalga oshgan bo‘lardi. Buning yanada chuqurroq izohini Prezidentimiz so‘zlari bilan aytadigan bo‘lsak, “Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar”.

Bugun Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat, Ibrat kabi jadidlarning millat kelajagi, mamlakat taraqqiyoti va eng muhimi, uning mustaqilligi, erki uchun qilgan xizmatlarini aholining keng qatlami, xususan, yosh avlodga boricha yetkazib berish yangidan kun tartibiga chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchiligida Munavvar qori va Avloniy istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishdagi hissasi uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Ularga hukumat tomonidan ko‘rsatilgan bunday yuksak e’tiborni qilinadigan ishlarning debochasi deb qabul qilishimiz lozim.


HAR KIM O‘ZGARISHI KERAK

Jadidlik harakatining o‘rganilishi, targ‘ib qilinishi, nafaqat kerak, balki muhim, havoday zarurdir. Biz Uchinchi Renessansni strategik vazifa deb qarab, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqchi bo‘lsak, jadidlarimiz ta’kidlaganidek, “Har kim o‘zgarishi kerak. Har kim o‘zgarishni o‘zidan boshlashi kerak”. Bu o‘rinda, ayniqsa, ziyolilar, mansabdor ma’murlar o‘zgarishni o‘zlaridan boshlamas ekan, biz oldimizga qo‘ygan yuksak strategik vazifani uddalay olmaymiz.

YANGI UYG‘ONISH DAVRINING TAYANCH USTUNLARI

Jadid maktabi, bugungi istilohlar bilan aytadigan bo‘lsak, innovatsion va “smart” (aqlli) maktab edi. Unda joriy qilingan “tovush” usuli bugungi ta’limning asosi, kerak bo‘lsa, tamal toshidir. Islohotlarning boshlang‘ich maktabdanoq joriy qilinishi ham bejiz emas edi. Chunki maktab – rivojlanishning poydevori, u mukammal bo‘lmas ekan, millat taraqqiyoti haqida gapirish ham befoyda. Shu sababdan ham Uchinchi Renessans bo‘sag‘asida turgan Yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi bo‘lg‘usi Renessansning uzviy halqasi, jadidlar “arkoni millat” yoki “millat ustunlari” deb bilgan ziyolilar esa “yangi Uyg‘onish davrining tayanch ustuni” deb qabul qilindi.

Behbudiy “maktabimiz, do‘konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur” degan shior bilan islohotni maktabdan, aniqrog‘i, boshlang‘ich maktabdan boshladi. Maktabni “taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas” degan aqidani ilgari surgan Behbudiy



boshliq turkistonlik jadidlar boshlang‘ich ta’limni ona tilida berishga mo‘ljallangan maktablarning umummilliy institutini yaratishga qaratilgan dasturni taklif etdi. E’tibor bering: boshlang‘ich ta’lim bolaning ona tilida berilishi kerak! Jadidlar bola boshlang‘ich savodini o‘z ona tilida chiqarishi unga millat, milliyat tushunchalarining chuqurroq singdirilishini ta’minlaydi, deb bildilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh etilishi millatning isloh etilishiga olib kelishini ta’kidlar ekan, millatga “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, deya murojaat qildi. Millatning isloh etilishini umummilliy g‘oya deb bildi. Unga ko‘ra, millatni ulug‘lash, maqsadlarni yuqori ko‘tarish, millatning haqiqiy birligini ta’minlash – bu “umummilliy g‘oya”ning tub mohiyatini tashkil etadi. Mana Behbudiy taklif qilgan milliy g‘oya.

MILLIY G‘OYA

Behbudiyning “umummilliy g‘oya”si targ‘iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar ana shunday matbuotga asos soldi. Jadid matbuoti tom ma’noda fikr almashish, ilg‘or g‘oya va tashabbuslarni targ‘ib qilish, bahslashish maydoniga aylandi. Jadid matbuoti demokratik qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan, fikrlar qarama-qarshiligini ko‘tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzularda tanqid qila oladigan matbuot edi. Birgina Behbudiyning “Oyina” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatish yo‘lida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir turli maqolalar e’lon qildi, bu yo‘nalishda keng bahslar uchun minbar vazifasini o‘tadi.

Turkiston jadidligining yirik tadqiqotchilaridan biri Begali Qosimovning fikriga ko‘ra, o‘lkamiz ma’rifatparvarlarining gazeta, xayriya jamiyatlari ta’sis etish, yangi usul maktablarini yoyish, teatr ishlari va boshqa barcha harakatlari bir milliy g‘oya uchun xizmat qildi. Uning ta’kidlashicha, har bir g‘oya milliy g‘oyaga aylanishi uchun ikki talabga javob berishi kerak: 1) g‘oya millatning haqiqiy ehtiyojidan, turmush tarzidan, asriy an’analaridan va albatta, imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak; 2) ushbu g‘oya millat tomonidan anglab yetilishi, boshqa so‘z bilan aytganda, milliylashtirilishi kerak. Ya’ni g‘oya millatning har bir vakili yuragiga yetib borishi lozim.

ZAMONAVIY BILIMLARDAN XABARSIZLIK BARCHA SIYOSIY HUQUQLARNI YO‘QQA CHIQARADI

Behbudiy milliy g‘oyasining yana bir targ‘ibot quroli bu – adabiyot edi. Jadidlar buyuk Navoiy, Fuzuliy, Sa’diyni chuqur bilgani holda adabiyotni xalqqa, ommaga yaqinlashtirdi, uning tilida yozishga harakat qildi. Va bu ishni uddaladi. Bugungi kunda istalgan yetuk badiiy asar bilan bellasha oladigan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”i, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani, she’rlari shu tariqa paydo bo‘ldi. 1916-yilda Toshkentga kelib, sobiq Kolizey konsert saroyi sahnasida “Turon” truppasining qator spektakllarini ko‘rgan rus sharqshunosi A.N.Samoylovich bejiz: “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Yangi adabiyotning markazi – Samarqand… Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiydir”, deb yozmagan edi.

Behbudiy boshliq barcha jadidlar xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag‘ni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash uchun, davlat va xorij ta’lim muassasalarida yoshlarning tahsili uchun yo‘naltirishga da’vat etdi. Behbudiy bu harakatni umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb atadi. Bunga esa iroda, aniqroq aytadigan bo‘lsak, siyosiy iroda kerak edi. Behbudiy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi sifatida Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishidan 11 yil avval, 1906-yili “Turkiston milliy-madaniy muxtoriyati” loyihasini ishlab chiqqan va uni yuqori miqyosda muhokama qilinishi uchun Rossiya davlat Dumasiga yo‘llagan edi. Bu loyihada Behbudiy ta’lim-tarbiya, ayniqsa, yer masalasini qat’iy qo‘ydi va rus muhojirlarini ko‘chirib kelmaslik, hosildor yerlar mahalliy aholining ixtiyorida qolishi kerakligi haqida yozdi.

Behbudiy o‘zining ma’naviy ustozi Ismoil G‘asprali kabi musulmonlarga siyosiy huquqlar berilishi mavjud muammoni hal qilmaydi, deb hisobladi. Unga ko‘ra, zamon tili bo‘lgan rus tili va mavjud qonunlarini bilmaslik va eng asosiysi – musulmonlarning zamonaviy bilimlardan xabarsizligi qo‘lga kiritilgan barcha siyosiy huquqlarni yo‘qqa chiqaradi. Shunday ekan, Behbudiyning “Haq olinur, berilmas... G‘ayrat ila olinur” degan chaqirig‘i, eng avvalo, millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmasligini anglatadi.

ILMDAN BOSHQA NAJOT YO‘Q!

Shu o‘rinda jadidlarning yosh avlodi to‘g‘risida Behbudiyning fikrlarini keltirib o‘tish joiz. Unga ko‘ra, jadidlarning yosh avlodi orasida g‘oyaviy jihatdan ixtilof bor edi. Behbudiy yoshlarni tezroq o‘zaro kelishuv yo‘lini topishga va yo‘qotilgan ishonchni qaytarishga chaqiradi. Chunki “umummilliy g‘oya” yo‘lida bir bo‘lib harakat qilmaslik millatning bo‘linishiga va ayrim umummilliy loyihalarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan shiorni hayotiy e’tiqod deb bildi. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin deb hisobladi”.

Yana shuni qayd etish kerakki, bugungi murakkab davrda O‘zbekistonda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mustaqil fikriga ega hamda fidoyi va vatanparvar avlodni yetishtirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy targ‘ib qilgan g‘oyalar o‘ta muhim va dolzarbligini yo‘qotmagan.

Turkistondagi jadidlik harakatining mintaqadagi munosib o‘rnini ko‘rsatish, ularning faoliyati va ijodini chuqur o‘rganish, keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va targ‘ib qilish maqsadida yetuk ma’rifatparvar, siyosatchi, adib, noshir, publitsist, jurnalist Mahmudxo‘ja Behbudiy nomi bilan ataladigan Jadid tadqiqotlari akademiyasini tashkil qilish fursati yetdi. Chunki jadidlik harakati va jadidlar zamonaviy o‘zbek jamiyati va davlatchiligi shakllanishiga munosib hissa qo‘shdilar. Ularning boy ilmiy va ijodiy merosi bugungi murakkab davrda O‘zbekistonda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mustaqil fikriga ega fidoyi va vatanparvar avlodni tarbiyalashda o‘ta muhim va dolzarb hisoblanadi. Shu bois Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Cho‘lponlarning g‘oyaviy merosi “biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak”.

Zaynobiddin ABDIRASHIDOV,
Anqara Hoji Bayram Valiy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

MUAMMO

OILA – SHAXSIY MASALA EMAS!

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi davr jamiyatda ham qarashlar islohini talab qilyapti. Afsuski, biz fikrlar xilma-xilligi girdobida nimalarni topib, nimalarni yo‘qotayotganimizni aniq anglab olishga ulgurmayapmiz. Zamon yaratgan qulayliklar va shunga yarasha talablar jarayonida kishining hayotda to‘g‘ri, halol yo‘lni topishi murakkablashmoqda. Bu, albatta, birinchi navbatda jamiyat hamda mahallaning negizi bo‘lgan oila va tajribasiz yoshlar turmushida yaqqol ko‘zga tashlanyapti. Taniqli huquqshunos, “Kongress-Nota” advokatlik firmasi advokati Usmonqul AHMEDOV bilan suhbatimiz shu mavzuda kechdi.

– Sud-huquq sohasi xodimlari faoliyati birmuncha murakkab hisoblanadi. Keyingi yillarda yoshlar orasida sudlov darajasigacha ko‘tarilgan qanday mojarolar ko‘payib bormoqda?

– Huquqni muhofaza qilish bo‘yicha dastlabki tergov va sud sohasida O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidentining bir qancha farmon va qarorlari qabul qilindi, keyingi yillarda Jinoyat, Jinoyat protsessual, Ma’muriy kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yoshlar o‘rtasida psixotrop moddalarni iste’mol qilish, uni sotishga doir jinoyatlarni sodir qilganlikda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan keskin choralar ko‘rish va jazo muqarrarligini anglatuvchi moddalar qo‘shildi. Xususan, JK 251-251[1]-moddalarida: “Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish” masalasi o‘z aksini topgan. Bu bejiz emas. Afsuski, yoshlar o‘rtasida psixotrop moddalarni iste’mol qilish hollari ko‘paymoqda. Buning oqibatida odamlar joniga qasd qilish, o‘g‘rilik, firibgarlik singari jinoyat turlari sodir etiladi. Ko‘pchilik bu holatlarning ishsizlik, tirikchilik o‘tkazish og‘irligi oqibatida kelib chiqishiga urg‘u beradi. Menimcha, buning sabablarini oila muhitidan, ota-onaning farzand tarbiyasiga e’tiborsizligidan qidirish kerak.

Masalan, Jinoyat kodeksining 2511-moddasi bilan ayblanib, sudga yuborilgan bir shaxs kuchli ta’sir qiluvchi 67 dona “Regapen” va 21 dona “Tropikamid” dori vositalarini qonunga xilof ravishda sotish maqsadida boshqa shaxsning plastik kartasidan 6 565 000 so‘m qabul qilib olayotganda huquq-tartibot xodimlari tomonidan jinoyat ustida qo‘lga olingan. Uning tarjimai holini o‘rganganimizda ma’lumoti oliy, yangi yengil etdim va ular 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilindi. Ushbu jinoyatni sodir qilgan shaxslar ham nochor yoki moddiy jihatdan qiynalgan oila farzandlari emas, ularning halol mehnat orqasidan oila boqish imkoniyatlari bor.

Ana endi mahkumning panjara ortida o‘tkazadigan umri davomida farzandlarining tarbiyasi qanday bo‘ladi? Ular qanday inson bo‘lib shakllanadi? Bu masalani chuqur o‘ylab ko‘rish kerak.



mashinasi bor, hamma narsasi yetarli ekanligi ayon bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda yoshlar orasida “Pregabalin”, “Mefedron”, “Tetragidrokannabinol” (gashish) singari kuchli ta’sir qiluvchi kimyoviy moddalar tarqalishiga duch kelyapmiz. Keyingi vaqtlarda ketma-ket ana shunday jinoyatga qo‘l urgan shaxslarning jinoiy ishlari ko‘rib chiqilganda shaxsan o‘zim ishtirok

– Ma’lumki, bugun xorijda ishlab oilasini boqayotganlar ko‘p. Uzoq vaqt otasiz yoki onasiz yashayotgan bolalar tarbiyasida kamchiliklar bo‘lishi tayin. Mana shu muammolar oqibati qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda?

– Bu savolingizga javob berishdan oldin tarixga bir nazar solishni istardim. Ikkinchi jahon urushida yurtimizdan taxminan bir yarim milliondan ziyod odam qatnashgan. Ular uyiga bir so‘m jo‘natganmi? Balki bu taqqoslash mantiqsiz tuyular, ammo haqiqat! Urush davri bolalari keyinchalik mehnatkash, halol insonlar bo‘lib ulg‘aydi. Ular – bizning ota-bobolarimiz. O‘sha davrda fan, madaniyat va boshqa sohalarda qanday ulug‘ insonlar yetishib chiqdi. Buning asosi milliy qadriyatlarda: halollik, rostgo‘ylik va o‘zaro oqibatda bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Otalarimiz birovning haqidan qo‘rqqan, oilasiga harom luqma olib kirmagan.

Hozir ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuv bo‘layotgan maktab o‘quvchilarining ustozlarini mensimasliklari haqidagi faktlar ham kelajakda og‘ir oqibatlarga olib borishi mumkin. Maktab yoshidanoq jamoat tartibiga bepisand ruhda o‘sgan, ota-ona nazoratidan tashqarida qolgan bolalar erta-indin bezori yoki giyohvand bo‘lmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Mana shunday sharoitda o‘qituvchilarni huquqiy jihatdan yanada himoyalash yoki mavjud huquq doirasini kengaytirish lozimmikin, deb o‘ylab qolaman.

Shu o‘rinda atoqli adib Sadriddin Ayniyning: “Ortiqcha pul o‘g‘il bolani, yetishmovchilik qiz bolani buzadi”, degan dono so‘zlarini keltirmoqchiman. Ota uzoqda mashaqqat bilan pul topib, oilasiga yuboryaptimi, farzandlar ham buning qadriga yetishi lozim. “Men sendan kammi?” qabilida ish tutayotgan ayrim manman oilalarda ulg‘aygan farzandlarning aksariyati ko‘chada tarbiya topadi, ya’ni biz kutgan tarbiyani ko‘rmaydi.

– Oila – muqaddas qo‘rg‘on, ish jarayoningizda bu qo‘rg‘onning butunligiga tahdid soluvchi qanday xavflarni ko‘proq kuzatyapsiz?

– Xalqimizning “Ota turib o‘g‘il, ona turib qiz so‘zlar” degan kinoyali maqoli tez-tez xayolimga kelib turadi. Bugungi hisob-kitoblarga ko‘ra, Toshkent shahrida qayd etilgan taxminan bir ming ikki yuzdan ortiq nikohlarning qariyb yarmi buzilib ketmoqda. Buning asosiy sababi oilada o‘g‘il-qizlarga milliy urf-odatlarimizni chuqur singdira olmayotganimizga borib taqaladi. Qizlarning sabrsizligi, yengil hayotga o‘rgangani, arzimagan muammoni deb oiladan voz kechish hollari ko‘payib borayotgani tashvishlanarli. Oila buzilishining oqibatlari o‘zingizga ma’lum.

Masalan, 1995-yilda tug‘ilgan yigit bilan 1999-yilda tug‘ilgan qiz 2021-yil mart oyida turmush qurib, bir nafar farzandli bo‘lishgan. Biroq ayol jufti haloliga xiyonat qilgan. Havoyi orzularga berilib, oilasini tashlab ketgan. Ayol shu darajaga yetganki, mahalla yarashuv komissiyasi narida tursin, ota-onasining gaplarini ham rad etgan. Xo‘sh, bu qaysi insoniylik mezoniga to‘g‘ri keladi? Or-nomus haqida-ku gapirmasa ham bo‘ladi. Bu kabi ko‘ngilsizliklar farzand tarbiyasidagi xatolarning oqibati emasmikin?

Yana bir holatni aytay. Yaqinda viloyatlardan birida yosh oilada yuz bergan mojaro masalasini ko‘rishga to‘g‘ri keldi. Arzimagan bahona bilan ro‘zg‘or buzilib, norasida ko‘chada qolgan. Kelinning qaynota va qaynonasiga oshkora hurmatsizligi, sababsiz janjal ko‘tarishlari shunga olib kelgan. Ayol qo‘lidagi emizikli go‘dakni ota-onasiga tashlab, Toshkent shahrida ishlayman, deb chiqib ketgan.

Nima uchun Yevropa davlatlarida nikoh tuzish murakkab jarayon hisoblanadi? Chunki ularning qonunchiligida nikohni qonuniy rasmiylashtirishdan oldin nikoh shartnomasi tuzilib, har ikki tomonning majburiyatlari belgilab olinadi. Bizning qonunchiligimizga ham nikoh shartnomasi tuzish, majburiy me’yorlar kiritish vaqti keldi, deb o‘ylayman.

Bir so‘z bilan aytganda, oila mustahkamligini ta’minlash masalasini butun xalq, jamiyat jiddiy muhokama qilib, o‘z munosabatlarini bildirishi zarur. Zero, har bir oila – umumjamiyat mulki hisoblanadi. Uni asrab-avaylash orqali millat kelajagini ta’minlaymiz.

– Muhim mavzudagi fikrlaringiz uchun sizga gazetxonlarimiz nomidan rahmat aytamiz.

Humoyun AKBAROV
suhbatlashdi.

Insho haqida insho



Boshlanishi 1-sahifada.

Matematikadan imtihon, ayniqsa, yozma ish qabul qilinadigan ixtisosliklarga qabul rejasi ko‘pincha to‘lmay qolar edi. Hatto qo‘zi-yu buzoqning tug‘ilishigacha rejalashtirilgan tuzumda qabul rejasi bajarilmay qolsa, dakki yeydigan rektorlar baholarga talabni susaytirishni talab eta boshlagan. Xususan, matematikadan imtihonda baho qo‘yish o‘ta liberallashgan. Aniqroq aytganda, yozma ish beshta masaladan tuzilib, aslan kamida uchtasini ishlagan abituriyent ijobiy baho olishi lozim bo‘lsa, fizika-matematika ixtisosliklarida ikkita, geologiya, psixologiya kabi ixtisosliklarda bitta masala uchun qoniqarli baho qo‘yilgan. Ustiga ustak yil o‘tgan sayin masalalar soddalashtirib borilgan. Shuning uchun matematika imtihonining bahosidan norozi abituriyent deyarli bo‘lmas edi. Inshodan esa... olgan bahosidan norozilar juda ko‘p bo‘lib, ona tili va adabiyot fani bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi a’zosi bo‘lmish filolog domlaning ishi boshidan oshib yotar, buning ustiga, ayrim da’vogarlar bilan uzoq bahs qilishiga to‘g‘ri kelar edi.

Shunday voqea xotiramga mixday qoqilgan – inshodan “to‘rt” baho olgan bir abituriyent kirib kelib domlaga ro‘baro‘ bo‘ldi. Uning odobi, ko‘zlaridagi ilmga ishtiyoq, ayni paytda kutganidan pastroq baho olganidan taajjubni ifodalovchi qiyofasi hamon ko‘z oldimda. Domla inshoni varaqlar ekan, peshonasi terlay boshladi. Daftarga ko‘z qirini tashladim – bitta orfografik xato, ikkitadan tinish belgilari va stilistik xato degan yakun bilan “to‘rt” baho qo‘yilgan ekan. Bola ruhan ezilib “Orfografik xato qilibmanmi?” deya so‘radi. “Ha, o‘g‘lim, – dedi domla ham o‘zidan o‘zi norozi ohangda, – “nuri diyda” degan iborani qo‘shib yozibsiz”. Bolakayning kipriklari namlandi. Boshqalarga o‘xshab u bahslashmadi, chamasi, tarbiyasi bunga yo‘l qo‘ymadi, sekin o‘rnidan turib eshikka yo‘naldi.

Tabiiy e’tiroz tilga keldi: – Buni orfografik xato demasa ham bo‘ladi-ku. Imlo lug‘atini suv qilib ichib yuborgani ko‘rinib turibdi – besh sahifa inshoni xatosiz yozibdi, hatto ancha-muncha romanda uchramaydigan nodir so‘zlarni ham qo‘llabdi. Husnixati ham havas qilgudek.

– E, uka, – dedi domla yig‘laguday bo‘lib, – agar filfakka topshirganida, hech ikkilanmay “besh” qilib berar edim. Tekshirgan domla ham “to‘rt” qo‘ymagan bo‘lar edi. Afsuski, u baland dorga osilgan, medalist ekan, inshodan “besh” olsa, bitta o‘rinni yulib ketadi.

– Yaxshi emasmi?

Domla ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘tarib, yuqoriga nuqidi: “Har bir o‘rin ozg‘ingina xonimingizning hisobida, agar “besh”ga to‘g‘rilasam, ishdan haydalaman. Meni ham tushuning, uka”. (Kesatiq bilan ozg‘ingina atalgan xonim – amalda universitetni boshqargan prorektor.)

Domlaning so‘nggi gapi ana shu fakultetga faqat yuqorining ro‘yxatidagi bolalargina kirishi lozimligiga ishora edi. Bunga ko‘ra, ismi-familiyasi “ro‘yxat”ga kirganlarning inshosi har bir so‘zida xato bilan yozilgan bo‘lsa ham “besh”, ro‘yxatga kirmagani uchun, u iqtidorlining iqtidorlisi bo‘lsa ham, qabul eshiklari berk bo‘lgan. Albatta, bundan istisnolar yo‘q emas – boshiga qilich kelsa ham, to‘g‘ri baho qo‘yadigan domlalar uchrar edi. Ammo ular yo imtihon komissiyasi tarkibiga kiritilmagan, yo ishdan bo‘shatilgan.

Ro‘yxatlar ro‘yxati. Aslida ro‘yxatlar ko‘p bo‘lar edi: eng yuqorida “rektor ro‘yxati” turgan, so‘ng prorektorlar, partkom, mestkom, qabul komissiyasi rahbarlari, predmet komissiyalari raislari, dekanlar ro‘yxati va hokazo. Yuqoriroqning ro‘yxatidagi abituriyentlar hamma imtihondan sip-silliq o‘tar, pastga tushgan sari raqobat, turli ro‘yxat sohiblari o‘rtasida “sen – menga, men – senga” qabilida savdo bo‘lar edi. Xullas, yil o‘tgan sayin ro‘yxatkashlik oqibatida o‘ta prestijli ixtisoslarga “yuqori”ning ro‘yxatidagilar soni ajratilgan o‘rinlardan ortib keta boshlagan. Buning oqibatida kelib chiqadigan kolliziyalar yozilsa, yaxshigina tragikomediya bo‘ladi.

Oliy o‘quv yurtlariga qabul paytidagi ro‘yxatbozlik asli jinoyat, kadrlar siyosatining ildiziga bolta urish edi. Shunga qaramay, biror rektor buning uchun ishdan olingan emas. Aksincha, biror oliy mansabdorning arzandasi “rektor ro‘yxati”ga kiritilgani holda, nimadir sabab bo‘lib, o‘qishga kirolmay qolsa, rektorga chora ko‘rilgan. Hatto akademik S.H.Sirojiddinovday buyuk olim va fidoyi vatanparvar yetmishga yetmay vafot etib ketishining sabablaridan biri shu bo‘lgan – alloma so‘nggi marta rektor etib tayinlanganda, ro‘yxat-po‘yxat degan narsaga yo‘l qo‘ymagan. Buning oqibatida “yuqori”dagilarning e’tiboridan mosuvo bo‘lgan, Anishchev-Satin tandemi domlaga tashlanganida, himoya qilish o‘rniga, tomoshabin bo‘lib turishgan. (Balki qarsak ham chalishgandir).

“Biz ham anoyi emasmiz”. To test tizimi joriy qilinguncha qabul imtihonlaridagi g‘irromlik quyidagilarning ijodkorligi, tadbirkorligi bilan ham “gullab-yashnagan”. Bu borada qilingan ixtirolarning sanog‘i yo‘q. Gap nimadaligi haqida tasavvur berish uchun namunalar keltiramiz.

1. Shpargalka. Bu usul taraqqiy qilib industriya darajasiga yetgan – maxsus shpargalka ishlab chiqarish “kasbi” paydo bo‘lgan. 2. Abituriyent o‘rniga imtihonga a’lochi talabani kiritish (pasportdagi rasm almashtirilgan). 3.Abituriyent bilan birga a’lochi o‘quvchi yoki student hujjat topshirishi va bitta xonaga kirib o‘tirishi. 4. Abituriyent imtihon xonasining derazasi tagiga o‘tirib, insho mavzusi yoki yozma ishni ipga bog‘lab, tashqariga tushirishi, so‘ng shpargalkani tortib olishi. 5. A’lochi ekanligi qirtillatib yozishidan ko‘rinib turgan qo‘shni abituriyentdan ko‘chirish. 6. Imtihon nazoratchisini sotib olishga urinish. 7. Qabul komissiyasi a’zosi orqali yozma ish yozilgan daftarni kiritish. 8. Inshoning sarlavhasini boshqacha yozish. 9. Daftarning birinchi sahifasining oxiriga oldindan kelishib olingan so‘z yozish. (So‘nggi ikki usulda imtihon komissiyasining a’zosi kerakli inshoni shifrlangan daftarlar ichidan ajratib olgan.) 10. Dotsent X.Jumayev shunday voqeani so‘zlab bergan edi: “Fizfak podvalidagi o‘quv zalida yozma imtihon boryapti. Shu zalning kiraverishida hojatxona bor. Abituriyentlar hojatxonaga chiqib kelishni so‘rashadi. Rahmdillik qilib ruxsat beramiz. Negadir hojatga chiquvchilar ko‘p. Bundan taajjubga tushib, borib qarasak, hojatxona devorlari qistirilgan qog‘ozlar bilan yulduzli osmonday. Ochib ko‘rsak, yangi qistirilganida variant, avvalroq qistirilganining o‘rnida tayyor shpargalka. Ma’lum bo‘lishicha, abituriyent birinchi safar yozma ish variantini qistirib qo‘yar, uning bu qog‘ozini binoga kirish, demak, hojatxonaga ham tushishga ruxsati bor xodimlar olib, shpargalkaga almashtirar, so‘ng abituriyent ikkinchi marta chiqib uni olar ekan”. Va hokazo.

Nima uchun test? 1991-yilning qabul kampaniyasida mamlakatning yetakchi universitetlaridan birida ajoyib boshqotirg‘ich vujudga kelgan – “prestijniy” fakultetga hujjat topshirib, hamma imtihondan “besh” baho olganlarning soni ajratilgan qabul rejasidan ancha ortib ketgan! Qabul masalasi osilib qolganidan xavotirga tushgan ota-onalar prezident idorasiga borib, shikoyat qilishgan. Holatni bilgan prezidentning boshi qotib, masalani hal qilishni o‘sha paytda vazirning birinchi o‘rinbosari M.Qoraboyevga topshiradi (Alloh rahmat qilsin). U g‘alvani topqirlik bilan tinchitgan.

Xuddi shu kunlari O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilinadi. Uni birinchilar qatorida Turkiya Respublikasi tan oladi. Yil oxirida rasmiy hay’at Anqaraga tashrif buyuradi. O‘zbekiston-Turkiya muzokaralarida ushbu mamlakat Bosh vaziri Sulaymon Demirelning Nomiq Kamol Ziyobek ismli yordamchisi (bizdagi o‘rinbosarga to‘g‘ri keladi) ham qatnashadi, albatta. U o‘zi asli shoir bo‘lib, ta’lim sohasiga mas’ul ekan. Tomonlarning kengaytirilgan uchrashuvlaridan birida O‘zbekiston prezidentining yodiga yozdagi g‘alva tushib, “Afandim, sizlarda universitetlarga qabul qay tarzda o‘tadi? Shikoyatlar ko‘p bo‘ladimi?” deya qiziqadi. Nomiq afandi Turkiyada universitetlarga qabulni OSYM degan markaz test usuli bilan amalga oshirishini, bu tizim joriy qilinganiga yigirma yildan oshgani, har yili millionlab yoshlar test topshirsa ham, hozirgacha olgan balidan birorta norozi ham, shikoyatchi ham bo‘lmaganini aytadi. O‘sha yerning o‘zida Turkiyaning universitetlariga qabul jarayonini o‘rganish va O‘zbekistonda joriy qilishga kelishib olinadi.

Shunday qilib, 1992-yilda oliy o‘quv yurtlarning bir qismida tajriba tariqasida, 1993-yildan barchasida qabul test sinovlari vositasida amalga oshiriladi.

Test sinovdan o‘tdimi? Xo‘sh, oliy o‘quv yurtlariga qabul uchun test tizimini joriy qilish o‘zini oqladimi? Shubhasiz, dastlabki bir necha yil ichida test sinovlari ulkan ijobiy rol o‘ynadi – ich-ichidan chirib bitgan imtihon tizimiga nisbatan beqiyos darajada xolis va ob’yektiv o‘tib, aholining e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Albatta, test tizimining ham kamchiliklari oz emas. Muallif “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1994-yil 21-sonida bu haqda maqola e’lon qilgan, unda avvalgi va yangi qabul usullari qiyosiy tahlil etilgan, test usulining o‘nta ijobiy tomoni va o‘nta kamchiligi ko‘rsatilgan edi. Ijobiy tomonlaridan eng asosiysi – xolis o‘tkazish imkoniyati, kamchiliklaridan eng asosiysi – u yozma imtihon o‘rnini bosolmasligida.

Afsuski, test sinovlarining xolisligi uzoq davom etmadi. “Farzandim bilimli bo‘lsin” emas, “diplomli bo‘lsin” degan tamoyil test deb atalgan “qal’a”ning bir u joyidan, bir bu joyidan qo‘pora boshladi. Test sinovlaridagi noxolislikning bosh sabablaridan biri – ularning oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilishi bo‘lgan (to 2017-yilgacha). Qisqa muddat ichida “bunker” degan g‘irromlik ishga solindi. Yillar o‘tishi bilan ahvol shu darajaga yetdiki, yirik universitetlardan birida grant asosida qabul qilinganlarning bali bilan navbatdagi abituriyentning bali o‘rtasidagi farq 50 dan yuqori bo‘lgan. Bu voqea ijtimoiy tarmoqlarda rosa shov-shuv keltirib chiqargan edi. Zotan, bunday farq mazkur universitetda grant o‘rinlariga qabul rejasi 100 foiz “bunker”dagilar bilan to‘ldirilganini bildiradi. Beixtiyor xalq iborasi yodga keladi: “O‘g‘ri bo‘l, g‘ar bo‘l – evi bilan bo‘l”.

Darvoqe, quyidagilar ham mudrab o‘tirgani yo‘q. Bilimi nol bo‘lgan abituriyent ham yuqori bal olishini ta’minlaydigan shpargalkalar o‘ylab topildi. Mana shunday “eshik qolib, teshikdan kirish” tamoyili oqibatida oliy o‘quv yurtlarida deyarli chalasavodlar o‘qigan yillar hali mudarris-domlalar yodida.

Muqobil yechim namunasi. Xullas, 2010-yillarga kelib test tizimi fasodlab bo‘lgan edi. Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan keyin qabul qilgan dastlabki qarorlaridan biri – test sinovlarini oliy o‘quv yurtlaridan ajratish, ularni imkon qadar oshkora, ulkan zallarda o‘tkazish to‘g‘risida bo‘ldi. Garchi bu qaror jurnalistlar va blogerlar hamjamiyatining e’tiborini deyarli o‘ziga tortmagan bo‘lsa-da, uning ahamiyati o‘sha yillari qabul qilingan boshqa qarorlar: pul va valyuta muomalasini tartibga solish, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni ilitib, chegaralarni kesib o‘tishni qulaylashtirish, kuch ishlatar tizimlardagi islohotlar to‘g‘risidagi qarorlarning ahamiyatidan kam bo‘lmagan. U test sinovlarida xolislik, adolat masalasini deyarli to‘liq hal etdi. Natijada yoshlardagi bilim olishga intilish tuyg‘usi tiklana boshladi, ota-onalar ham yaxshi ta’lim va tarbiya beradigan maktablarni izlay boshladilar, malakali o‘qituvchilarning qadri ko‘tarildi, repetitorlar va xususiy ta’lim markazlariga ehtiyoj kuchaydi.

Og‘ir muammoning bunday yechimi umidvor tajriba bo‘ldi: mayishgan mentalitetni o‘nglash u qadar ko‘p vaqt talab etmasligini ko‘rsatadi.

Muammoning ildizi. Test sinovlaridagi adolat tiklandi, ammo testning mazmuni bilan bog‘liq boshqa muammo ochiqligicha qolmoqda: imtihondan farqli, test bilan sinaluvchidagi bilim va qobiliyatning faqat ayrim turlarinigina aniqlash mumkin. Holbuki, inshoning ijtimoiy-gumanitar ixtisosliklarga, matematikadan yozma imtihonning aniq va tabiiy fanlar, barcha texnika ixtisosliklariga qabulning sifatiga ta’siri katta. Shuning uchun “Test bo‘lmaydi, an’anaviy imtihon uslubi bilan qabul yaxshi edi” degan fikr tez-tez quloqqa chalinib turadi. Biroq hozirgacha insho imtihoni qanday o‘tkazilishi kerak, degan savol qo‘yilganini eslay olmaymiz. To u qo‘yilmas, muhimi, unga adolatni ta’minlay oladigan javob topilmas ekan, qisqa fursatda “ro‘yxat”bozlik illati yana huruj qilishiga shubha yo‘q.

Tabiiy savol tug‘iladi: “Insho muammosi sun’iy tabiatli emasmi? Agar insho ta’limda shu qadar muhim o‘rin tutar ekan, bitta qaror bilan qayta tiklash mumkin-ku?” Muammo shundaki, insho qay tarzda o‘tkaziladi? Bunda birinchi planga adolat masalasi qo‘yilmas ekan, har qanday yechim reaksion tabiatli bo‘ladi.

Insho yozuvchilarning halol yozishlari, tekshiruvchilarning halol baho qo‘yishlari, imtihonni tashkil etuvchilarning o‘z vazifalariga halol yondashuvi – bular bari jamiyatdagi muhit bilan chambarchas bog‘liq: agar vijdon ustuvor bo‘lsa, hamma abituriyentga bir xil imtihon varianti beraverish mumkin – hech kim ko‘chirmaydi – nomusi yo‘l qo‘ymaydi, tekshiriladigan daftarlarni domlalar uyda tekshirib kelishlari mumkin – hech kim “ikki” o‘rniga “uch” yoki “besh” o‘rniga “to‘rt” qo‘ymaydi – vijdoni yo‘l bermaydi. (Tasavvur qiling-a, o‘tgan asrning 50-yillarigacha yozma ishlar shunday tekshirilgan!)

Ajib bir savol: inson uchun halollik, vijdonlilik – tabiiy holat emasmi? Albatta, tabiiy. Faqat bu pok chashmadan chiqqan jilg‘a noto‘g‘ri tarbiya sababli bulg‘anadi. Avlodlarni halol va vijdonli qilib tarbiyalashning vositalari ko‘p. Ulardan eng samaralisi ibratdir. Ibrat manbai ikki toifa bo‘ladi: hayotdagi ibrat va adabiyotdagi ibrat. Afsuski, hayotda ijobiy ibrat yonida salbiy ibrat ham ilakishib yuradi. Jamiyatning ma’naviy holatiga qarab, birda unisi, birda bunisi kuchliroq ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Birgina Behbudiyning ibrati o‘z davrida jadidlik degan ommaviy harakatni keltirib chiqargani ijobiy ibratning o‘chmas namunasidir. Korrupsiya illatiga qarshi kurashning murakkabligi shundaki, unga qarshi “dorilar”ga nisbatan ibrat “zahar”i kuchliroq.

Mana shu sababga ko‘ra ijobiy ibratning bosh manbai – bu adabiyotdir. Tarixda kimki el ozodligi uchun o‘zini qurbon qilgan bo‘lsa, Shiroq kabi qahramonlardan ibrat olib voyaga yetgan. “O‘tkan kunlar” romani bosilganda, minglab tug‘ilgan chaqaloqlarga Otabek ismi qo‘yilgan. Holbuki, u fojiaviy obraz. Bunga nisbatan uning mard va jasurligi kuchliroq ta’sir quvvatiga ega.

Prosper Merimening “Matteo Falkone” degan novellasi bor. Unda korsikalik ovchi Falkonening o‘smir o‘g‘li partizanlardan birining yashirinishiga yordam beradi, ammo bosqinchilar izlab kelganda kumush soatni deb uni sotib qo‘yadi. Shu voqeaning ustiga Falkone kelib qoladi. Uning xotini partizanga suv tutganda, u xiyonatchining uyidan suv ichmayman, deydi. Nomusga qolgan Falkone o‘g‘lini otadi. Novella grotesk asosiga qurilgan – hayotda bunday bo‘lishi mumkinmi – aytish qiyin. Ammo u yoshlarni sotqinlikdan, xiyonatdan nafratlanish ruhida tarbiyalashda o‘ta ta’sirchan ibrat manbai namunasidir. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Adabiyotning tarbiyaviy qudrati jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga ishlashi uchun adabiyot darslarining o‘zi yetarli emas. (Qolaversa, adabiyot muallimlarining ichida o‘quvchilarni kitobdan bezdiradiganlari ham ancha-muncha bor). Bu borada eng to‘g‘ri yo‘l – yoshlarda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otish. Bunga erishishning eng samarali vositasi – bu insho.

Paradoksal holat: jamiyatda halollik, vijdon kabi prinsiplarni ustuvor qilish uchun inshoning rolini kuchaytirish lozim, buning uchun oliy o‘quv yurtlariga qabulga inshodan imtihon kiritish va uni halol o‘tishini ta’minlash kerak, buning uchun esa jamiyatda o‘sha halollik va vijdon ustuvor bo‘lishi talab etiladi. Bunday zanjir mantiq fanida “yopiq davra” deyiladi (inglizcha vicious circle, ruscha “замкнутый круг”. Google translator o‘zbek tiliga “ayovsiz doira” deb o‘girdi.)

Muammo – bu zanjirni uzishdan iborat.

Mentalitet, mentalitet. Shogirdlardan biri yil-o‘n ikki oy yoz bo‘ladigan mamlakatlardan birida ko‘p yillar dars berib keldi. Uning aytishicha, 200 kishilik guruhga ma’ruza o‘qigan. Taomilga ko‘ra, har haftaning oxirida yozma ish olish lozim ekan. Matematikadan yozma ish – bu bir necha masaladan iborat variant, degani. Qo‘shni o‘tirganlar bir-biridan ko‘chirishning oldini olish uchun, shunday yozma ish 10 tacha variantdan tuziladi. “Har hafta o‘ntadan variant tuzish o‘ta og‘ir-ku?” degan savolga shogird shunday javob qildi: “Har yozma ishga bitta variant tuzamiz, xolos. Chunki biror talaba yonidagi qo‘shnisining ishiga ko‘z qirini ham tashlab qo‘ymaydi. Bu ular uchun uyat sanaladi”. “Shu ham mentalitet bo‘ldimi?” devorasan. Hozir bu mamlakat musulmon davlatlarining ichida zamonaviy ishlab chiqarish sohasida eng yuksak rivojlanayotganidir.

Beixtiyor o‘yga botasan: mabodo bizda bitta variant tuzilsa, butun guruhning yozma ishi ham bir xil bo‘lishi naqd. Mentalitet shunday.

Mentalitet, albatta, murakkab voqelik. Uning tarkibida mehmondo‘stlik bilan isrofgarchilik, elga dasturxon yozishday ezgu an’ana bilan dabdababozlik, to‘y-marakalardagi mehr-oqibat bilan davlat idoralaridagi ta’magirlik, xushmuomalalik bilan kattazanglik, samimiyat bilan riyo, fidoyilik bilan xushomadgo‘ylik, masjidga borganda mo‘minlik bilan savdo-sotiqdagi g‘irromlik kabi bir-biriga zid unsurlar qorishiq. Demakki, milliy mentalitetni takomillashtirish ustida tinmay ishlash eng dolzarb muammolardan biri. Ayniqsa, millatparvar ziyolilar bu jabhada o‘z hayotini qurbon qilgan jadid bobolar xotirasi qarshisida burchdor.

Agar biz oliy o‘quv yurtlariga qabul sinovlariga inshoni kiritib, u mutlaq adolatli o‘tishini ta’minlay olsak, savodxonlik sifati keskin oshadi, ijtimoiy tafakkur yuksaladi, iste’dod tarbiyasi kuchayadi, ayni paytda mentalitetni poklash ishiga ham salmoqli hissa bo‘ladi. Aksincha, imtihonlardan halol baho olmay oliy o‘quv yurtiga kirgan talaba uni bitirguncha halol bahoga o‘qishiga ishonch yo‘q. Bunday yo‘l bilan oliy ma’lumot olgan chalamulla mutaxassis xalq xo‘jaligining qaysi sohasida ishlamasin, halol faoliyat yuritishiga ham kafolat yo‘q.

Qay turdagi bo‘lmasin, imtihonlar o‘z-o‘zidan halol o‘tadigan muhit yaratilmas ekan, mentalitet takomiltalab bo‘lib qolaveradi. Bir jumla bilan aytganda, imtihonlarning qay darajada halol o‘tishi millat mentalitetining ko‘zgusidir.

Insho – iste’dod barometri. Iste’dod turfa tarzda namoyon bo‘lishi yaxshi ma’lum. Xususan, favqulodda iste’dodlilar ko‘pincha xotirasi parishonroq, fikrlashi g‘ayrioddiy bo‘ladi. Bundan yarim asr muqaddam Moskva davlat universitetiga qabul qilinuvchilarning sifati tahlil qilinganda, matematika bo‘yicha yozma va og‘zaki imtihondan yuqori baho olgan o‘quvchilarning anchagina qismi inshodan “ikki” olib, o‘qishga kirolmay qolgani aniqlangan. Shu sababli, hukumatga murojaat yo‘llab, to‘rtta imtihondan asosiy ikkitasini “to‘rt” va “besh” bahoga topshirganlarni qolgan ikki imtihondan ozod etish so‘ralgan edi. Murojaat inobatga olinib, qabul qoidalariga tegishli o‘zgartirish kiritilgan. Chindan, filologiya, jurnalistika kabi ixtisosliklarga hujjat topshirib, inshodan “besh” olgan iste’dodli o‘quvchi tarix yoki chet tili imtihonidan “ikki” olishi hech gap emas.

Imtihonlardaki, shunday bo‘lishi mumkin ekan, test sinovlari aslida o‘ta iste’dodlilardan ko‘ra bilimi o‘rtamiyonalarga ko‘proq muvofiq tizimdir. Bu holat ham insho naqadar muhim omil ekanligiga yana bir dalil.

Insho va intellekt. Bugungi ayqash va chalkash dunyoda ogohlik naqadar muhim. Qarangki, jamiyat taqdiri uchun bir tiyinlik qadri yo‘q xabarlar, aytaylik, biror estrada yoki futbol yulduzining hayoti bilan bog‘liq shov-shuv ko‘z ochib yumguncha tarqaladi, ammo o‘sha taqdirni ag‘dar-to‘ntar qilib yuborishi mumkin bo‘lgan o‘ta muhim xabar hech kimning e’tiboriga tushmasligi mumkin. Buning izohi osondan oson: birinchi turdagi xabarlar odamlardan hech narsa talab qilmaydi, ikkinchi turdagi xabarning mohiyatini anglab yetishga esa anchayin chuqur bilim va o‘tkir aqliy salohiyat zarur. So‘nggi turdagi xabarlardan eng dolzarbi, bizningcha, sun’iy intellekt sohasidagi yangiliklardir. Bu soha yil emas, oy sayin ulkan odimlar bilan rivojlanmoqda, unda dunyoni mutlaqo o‘zgartirib yuboradigan yangiliklar qilinmoqda. Sun’iy intellekt muayyan ijobiy tatbiqlarga ega bo‘lishi tayin, ammo salbiy oqibatlari bir necha barobar ko‘proq bo‘lishi kutilmoqda. Hatto sun’iy intellekt xuruji qarshisida yadroviy qurol xavfi hech narsa bo‘lmay qoladi degan fikrlar bildirilmoqda. Birgina misol: istalgan odamning raqamli nusxasi yaratilib, u orqali o‘sha odamni istalgancha kompromatsiya qilish mumkinligi aytilmoqda.

Xo‘sh, inshoning sun’iy intellektga nima aloqasi bor? Sun’iy intellektni inson intellekti yaratadi, uning qudrati va oqibatlarini inson intellekti anglab yetadi, ijobiy tomonlarini inson intellekti amaliyotga qo‘llay oladi, salbiy oqibatlarini ham inson intellekti anglab, qarshi turish choralarini izlaydi.

Buning uchun inson intellekti tayyor bo‘lishi, ya’ni yetarlicha tarbiyalangan bo‘lishi lozim. Tabiiy, birinchi navbatda oliy ma’lumotli mutaxassislarning, ziyolilarning intellekti. Buning uchun maktab va oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlari mutanosib tarzda tuzilishi kerak. Yengillashtirilishi emas, balki og‘irlashtirilishi kerak.

Test sinovlariga yo‘naltirilgan ta’lim intellektni o‘stirish vazifasini uddalashga qodir emas, chunki test sinovlari minutlarda javob berishga mo‘ljallangan savol va masalalardan tuziladi, shunda ham sinov tayyor javoblardan birini topishdan iborat bo‘ladi. Intellekt esa soatlab, haftalab, oylab, kerak bo‘lsa, yillab izlanadigan savol va masalalar ustida bosh qotirish yo‘li bilan taraqqiy qiladi. Oliy o‘quv yurtlariga qabul sinovlarida insho va matematikadan yozma ish shuning uchun ham kerak.

Insho – intellektni o‘stirishning muhim omilidir.

Oshkoralik + IT = yechim. Xullas, insho muammosini hal etishimiz shart. Bitta qaror bilan test sinovlarida adolat o‘rnatilgani bu borada ham muammoni muqobil tarzda hal etishga ishonch uyg‘otadi. Shu bilan birga, testning ijobiy xususiyatlaridan biri – bu tekshirish va baholashning avtomatlashtirilgani bo‘lib, uni inshoda qo‘llashni hozircha imkoniyati cheklangan. Albatta, imloni tekshiradigan kompyuter dasturlari bor, yaqin orada punktuatsiya va stilistikani tekshiradigan takomil dasturlari ishlab chiqilsa kerak. Ammo inshoning mazmunini baholashni kompyuter dasturiga topshirib bo‘lmaydi. U hatto eng kuchli sun’iy intellekt bilan ta’minlangan bo‘lsa-da. Bu yumush malakali filologlar tomonidan qilinishi lozim. Demak, yozma imtihonlarni inson omilisiz o‘tkazish ilojsiz. Inson esa manfaatsiz bo‘lmaydi.

Bir qarashda masala boshi berk ko‘chaga kirib qolganday ko‘rinadi. Ammo yechim mavjud. U quyidagi prinsiplar asosida topilishi mumkin:

Birinchi, eng asosiy prinsip – yozma imtihonning barcha bosqichidagi to‘liq **oshkoralik.** Nafaqat insho yozish jarayoni, balki daftarlarni yig‘ib olib, shifrlash, tekshirib baholash, deshifrovka va baholarni e’lon qilish va apellyatsiya jarayonlarining barcha-barchasi videokuzatuv ostida o‘tkazilib, onlayn rejimda ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rsatib turilishi shart.

Ikkinchi prinsip – **ommaviylik.** Insho imtihoni ko‘pmingkishilik zallarda o‘tkazilishi, uni tekshirib, baholashga ham, apellyatsiyaga ham yuzlab mutaxassislar jalb etilishi darkor.

Uchinchi prinsip – **himoyalanganlik.** Bu prinsipga ko‘ra abituriyentlar istagan joylariga emas, balki tasodifiy tartibda o‘tqazilishi, shifrlangan daftarlar tekshiruvchilarga ham tasodifiy tartibda tarqatilishi kerak, toki manfaat aralashuviga imkon qolmasin.

To‘rtinchi prinsip – **operativlik.** Bunga muvofiq – insho to‘rt soat davomida o‘tkazilishi, ularni shifrlash, tekshirish, deshifrlash va baholarni e’lon qilib, apellyatsiya ham to‘rt soat davomida o‘tkazilishi, butun jarayon bir ish kunida amalga oshirilishi, yakuniy natijalar ham shu kunning o‘zida e’lon qilinishi lozim.

Bu prinsiplar matematika olimpiadalarini o‘tkazishda qo‘llangan va kamida 99% obyektivlikni ta’minlashi amalda sinab ko‘rilgan. Bir foiz noqislik baholashdagi subyektivlik bilan bog‘liq: tekshiruvchilardan biri o‘ta talabchan, biri yumshoqko‘ngil, birining kayfiyati xush, boshqasiniki noxushroq va hokazo bo‘lishi bahoga ta’sir qilishi ma’lum. Ammo bu nisbatan yengil, hal etilishi mumkin bo‘lgan masala.


Muhimi – bu bizning irodamiz, iymon-e’tiqodimiz, niyatimiz, mamlakatning buguni va ertasi, avlodlarimizning kelajagi haqida qayg‘urish tuyg‘usi.

Ta’lim sifatini ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar mamlakatning qudratini yuksaltirishga, jamiyatning intellektual kuchlarini harakatga keltirishga xizmat qilajak.

Abdulla A’ZAMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
fan arbobi, akademik

AJDODLAR NIDOSI

KIM NIMANI YAXSHI KO‘RAR?



Abdulla AVLONIY

Ehtimol, bizning xalq ilm-u ma’rifatni, tarbiya va ta’limni, hunar va sanoatni yaxshi ko‘rar, deb o‘ylaydurg‘ondursiz? Yo‘q, bu fikringiz yonglish.

Eshonlarimiz toat va ibodat, pand-u nasihat, zikr-u tasbeh o‘rnig‘a to‘ylardan to‘n kiyub, ko‘b oshab, ko‘p uxlashni yaxshi ko‘rurlar.

Ulamolarimiz dars-u ta’lim o‘rnig‘a, bir-birlari ila o‘run talashib, mukarrir va mudarris bo‘lishni, o‘zlari bo‘lolmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzishni yaxshi ko‘rurlar.

Imomlarimiz, xaloyiqg‘a va’z va nasihat o‘rnig‘a, to‘y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko‘rurlar.

Boylarimiz orqa-o‘nglarig‘a qaramasdan, foyda va zararlarini oyirmasdan bir-birlarig‘a raqobat qilaman deb, “bonka” va “kridit”larini ko‘payturub, do‘ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning mollarini bukub-sinishini yaxshi ko‘rurlar.

Mo‘ysafidlarimiz namoz va niyoz o‘rnig‘a, masjid eshigiga yig‘ilub o‘turub, har kimni g‘iybat va shikoyat qilishni yaxshi ko‘rurlar.

Muallimlarimiz bir-birlaridan qizg‘onishub, bolalarni arzon o‘qitaman deb, bir o‘zlariga yuz, yuzdan ortuq bola yig‘ub, o‘zlari to‘y va ma’rakalarda bolalarning umrini bekor o‘tkarishni yaxshi ko‘rurlar.

Savdogarlarimiz: “To‘ylikni to‘yi o‘tar, to‘ysizni kuni o‘tar” degan so‘zga amal qilmay, qaysi mahallada to‘y bo‘lsa, dasturxonchilik qilishni yaxshi ko‘rurlar.



Muazzinlarimiz azonni yaxshilab adoyi maxraj qilub aytishni o‘rganmay, bir joyda to‘y bo‘lub qolsa, “Falonchinikiga oshga-ho!” deb qiroat ila qichqirishni yaxshi ko‘rurlar.

Do‘kondorlarimiz ishlarini tartibga solmay, zamonag‘a muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg‘on eski do‘kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko‘rurlar.

Onalarimiz bilim va tarbiya o‘rnig‘a erlari ila urushub-talashub qizlarig‘a mol qilmakni yaxshi ko‘rurlar.

Otalarimiz bolalarig‘a o‘qutmak va ta’lim bermak o‘rnig‘a “O‘g‘lum emdi kattakon yigit bo‘lding, shuncha o‘quganing yetar, pul top!” – deb “tashishka” – hammollik qildirishni yaxshi ko‘rurlar.

Kosiblarimiz bir-biridan mollarini arzon sotaman deb, tezgina yirtiladurg‘on, tikishlar undan urub, mundan chiqg‘on, suvni yetti chaqirim yerdan chaqiradurg‘on mahsi va etiklar tikub, sotishni yaxshi ko‘rurlar.

Zargarlarimiz yigirma tiyinlik kumush, o‘n tiyinlik tillo orasig‘a mum va saqichlar joylab, ismini “qiz hayron”, “zebigardon” qo‘yub, besh-o‘n so‘mga sotishni yaxshi ko‘rurlar.

Tabiblarimiz dolchin, zanjabil, hubbul malik, filfil kabi bir necha attorni qutisida yo‘q narsalardan murakkab doru va ma’junlar yasab, bechora nodon xalqni pulini olishni yaxshi ko‘rurlar...

Savodxonlarimiz jarida va jurnallar, tarix va ro‘monlar o‘rnig‘a Daqyonus zamonidan qolg‘on, xurofotlar ila to‘lg‘on “Andog‘ urdilarki, gard-gard bo‘lub ketdi”, deb loflar yozilg‘on kitoblarni og‘izlarini qufurturub o‘qumoqni yaxshi ko‘rurlar...

Yoshlarimiz ilm va ma’rifatli bo‘lishni, hunar, san’at o‘rgonishni o‘rnig‘a, o‘zlariga zeb berub tor shim ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo‘yishni yaxshi ko‘rurlar.

Ishchilarimiz ilm va hunardan mahrumligi sababli boshqa millatlar ilm-u ma’rifatlari soyasida kuniga 4-5 so‘m ishlab turgan bu zamonda kuniga uch tangag‘a mardikorlikni, oyig‘a o‘n besh so‘mg‘a qorovullikni, yigirma so‘mg‘a fanar yoqishni, o‘n so‘mg‘a ko‘nka yo‘lini tozalashni va shularga o‘xshash eng past va og‘ir xizmatlarni yaxshi ko‘rurlar.

Bolalarimiz otalarimizning ilm qadrin bilmagan, ilm uchun pulni ko‘zlari qiymaganlik sababli o‘qumoq va o‘rganmoq o‘rniga “Oh pul, jonim pul”, deb “tashishka” – hammollikni yaxshi ko‘rurlar.

Muharrirlarimiz ko‘b-ko‘b oqcha olib, oz-oz yozishni yaxshi ko‘rurlar.

Mushtariylarimiz foydali maqolalar o‘rnig‘a xabarlarni yaxshi ko‘rurlar.

Dumalarimiz majlisga kelub, ustulga suyolub farog‘at qilub turg‘on vaqtlarida, bir tarafdan qattig‘roq tovush chiqsa, cho‘chib uyg‘onishni yaxshi ko‘rurlar.

Shoirlarimiz milliy she’r va adabiyot yozishni o‘rnig‘a muvashshahmi yoki “qoshingdan, ko‘zingdan”, – deb, juvonlarni maqtab fasod axloqg‘a sabab bo‘ladurg‘on she’rlar yozishni yaxshi ko‘rurlar.

Ammo men bo‘lsam, hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko‘rurman.

1913-yil

Husan SODIQOV
chizgan rasm.

TARIX VA TAQDIR


MILLATIMIZ OYDINLARIDAN BIRI

Jadidlik harakati namoyandalaridan biri, atoqli pedagog Ismatulla Rahmatullayev Samarqanddagi “Dorul odob maktabi”ning asoschisi bo‘lgan. U 1883-yili Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog‘ida bog‘bon oilasida tug‘iladi. Yosh Ismatulla ilk ta’limni mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning onasi Bibi Roziya ayadan oladi. Keyin tatar pedagoglardan biri tashkil etgan yangi usul maktabida o‘qiydi. 1905-yildan boshlab Abduqodir Shakuriy tomonidan asos solingan jadid maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Ayni paytda Samarqand shahridagi rus-tuzem maktabida rus tili, matematika, geometriya va geografiya kabi fanlarni o‘rganadi.

Ismatulla Rahmatullayev faoliyati davomida jadid maktablar uchun darsliklar, jumladan, alifbe, o‘qish kitoblarini yozish va nashr etish bilan ham shug‘ullanadi. Samarqanddagi xalq maorifi organlarida rahbarlik lavozimlarida ishlab, maorif sohasida katta tashkilotchilik ishlarini olib boradi. 1919-yilning o‘zida Samarqand shahrida 35 ta yangi maktabni tashkil etishda bosh-qosh bo‘ladi.

U 1915-yili pedagogik tajribalariga tayangan holda, shu bilan birga, jahonning ilg‘or pedagoglari va adiblari ijodi ta’siri ostida “Alifbe ta’limi yoxud rahbari maktab” kitobini yozadi. To‘qson soat dars uchun mo‘ljallangan ushbu kitobning muqovasida muallif “Johil farzandning gunohi ota-onaning zimmasidadir” deb, bolaning tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanishiga ishora qiladi. Shu bilan birga, kitobdagi “Bilim – yorug‘likdir, nodonlik – qorong‘ulikdir” kabi ibratli so‘zlar ham o‘quvchini ilm olishga da’vat etadi.

1922-yili Samarqandda mahalliy o‘qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar, bilim yurti (Инпрос, ya’ni



Ismatulla Rahmatullayev

Институт просвещения)ni tashkil etadi va 1926-yilgacha direktor, o‘qituvchi vazifalarida ishlaydi. Ushbu bilim yurti faqat o‘qituvchilar tayyorlaydigan o‘quv dargohi emas, balki madaniyat va fan sohasidagi bir guruh o‘zbek ziyolilarini yetishtirib bergan ta’lim maskani ham edi. Ular orasida shoir, bastakor, aktyor, pedagog, fan arboblari, professor va akademiklar, jumladan, Hamid Olimjon, Tolibjon Sodiqov, Fotih Niyoziy, Muzayyana Alaviya, Razzoq Hamroyev, Vohid Abdullayev kabi atoqli ziyolilar bor edi.

1926-yili O‘zbekistonda ilk bor tashkil etilgan “O‘zbek Davlat Kitob palatasi”ga Ismatulla Rahmatullayev direktor etib tayinlandi va ushbu muassasada 1933-yilgacha olib borgan faoliyati davrida katta ilmiy-bibliografik ishlarni amalga oshirdi.

Qatag‘on mashinasi Ismatulla muallim taqdirini ham chetlab o‘tmadi. Ismatulla Rahmatullayev “xalq dushmani” sifatida 1937-yilda 10 yillik qamoq jazosiga hukm etilib, NKVDning lageriga surgun qilindi. O‘sha yillarning dahshatli manzarasi xususida muallimning qizi filolog-murabbiy Xolida Rahmatullayeva quyidagi voqealarni ko‘zda yosh bilan so‘zlab bergandi: “Otam nihoyatda kelishgan, ko‘rkam, yuksak madaniyatli, xushfe’l inson edi. Tabiatan yumshoq, mehribon, shijoatli va shu bilan birga sabotli, bolalarni, va ayniqsa, ularga ta’lim berishni yaxshi ko‘rardi... O‘n yildan so‘ng otam jazo muddatini o‘tab lagerdan qaytib kelgach, “Endi xotirjam yashaymiz, otam har doim biz bilan birga bo‘ladi, endi uni hech kim olib ketmaydi”, deb o‘ylar edim. Afsuski, 1949-yilda otamni yana olib ketishdi. O‘sha qora kun hamon esimda. Ular otamni hibsga olishdi, bizlar esa ortlaridan dod deb qolaverdik... O‘sha yillari (1949-yil) men 19 yoshda SAGU(O‘rta Osiyo Davlat universiteti) ning filologiya fakulteti 2-kurs talabasi edim...

Ota mehriga, diydoriga endi to‘yay deganda, taqdir bizni yana o‘n yilga ayirdi...”.

Onamning aytishicha, buvim hamisha qo‘rquvda yashagan, doim sekin, deyarli pichirlab gapirar, suhbat mavzusi nomaqbul tuyulsa “Jim...”, der ekan. Bu qo‘rquv onamni ham tark etmagan. Ikki marta nohaq qamalib, “xalq dushmani” deb ayblangan bobomning 1957-yil reabilitatsiya qilinishi ham ularga bu qo‘rquvdan xalos bo‘lishga yordam bermadi... Faqat mustaqillikka erishganimizdan keyin onam va ularning Samarqanddagi ukalari, opalari bobomning ruhlarini shod qilaylik deb, nomini oqlashga, ezgu ishlarini yuzaga chiqarishga bel bog‘lashdi...

Samarqanddagi Qizil Ravot ko‘chasi, bobom asos solgan bilim yurti ham Ismatulla Rahmatullayev nomi bilan yuritila boshlandi. Hozirgi kunda jadid adabiyoti bo‘yicha yangi izlanishlar olib borilishi sababli I.Rahmatullayev hayoti va faoliyatining yangi qirralari, yangi faktlar yuzaga chiqmoqda. Zero, fidoyi ustoz Ismatulla Rahmatullayev hayoti va faoliyatini o‘rganish, ezgu ishlarining yosh avlod tomonidan davom ettirilishi muhim ahamiyatga ega.

Xurshida JALILOVA,
filologiya fanlari nomzodi,
O‘zMU dotsenti



Abduqodir Shakuriy va Ismatulla Rahmatullayev o‘quvchilari bilan. Samarqand shahridagi jadid maktabi.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

QATAG‘ON QURBONLARI

Oxunov Habib – 1895-yili Ozarbayjonda tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning sobiq a’zosi. Aksilinqilobiy kengashlarda qatnashganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. Jazo muddati 1937-yil 28-iyuldan hisoblangan.

Muhammadiyev Mahmud – 1885-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Uyida aksilinqilobiy yig‘in chaqirganlikda, mag‘lubiyatchilikka oid targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. Hibsga olingan vaqtda tayin mashg‘uloti bo‘lmagan. Jazo muddati 1937-yil 1-avgustdan hisoblangan.

Yo‘ldoshev G‘ulom Muhiddin – 1893-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, sobiq quloq, savdogar, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Aksilinqilobiy guruh rahbari sifatida yig‘inlar o‘tkazganlikda ayblangan.

Hasanov G‘iyosiddin – 1886-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, mudarris, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. Zararli va isyonchi aksilinqilobiy guruh rahbari sifatida doimiy ravishda mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, sovet hokimiyati bilan tashkiliy ravishda kurashishga chaqirganlikda ayblangan.

Sulaymonov Aminjon – 1885-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan. Sobiq quloq, millioner, London, Berlin, Eron va Afg‘onistonda jamg‘arma pullari bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Isyonchi aksilinqilobiy guruh a’zosi sifatida savdogarlarni aksilinqilobiy harakatga tayyorlash bilan shug‘ullanganlikda ayblangan.

Kamolov Ahmadjon – 1885-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan. Quloq, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Isyonchi aksilinqilobiy guruh a’zosi, qorako‘l zavodida zararli ishlarga qo‘l urganlikda, oqibatda katta miqdorda kamomadga yo‘l qo‘yganlikda ayblangan.

To‘raxo‘jayev Nurillo – 1873-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, quloq, millioner, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a’zosi. Doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi uyushgan holatda kurashishga chaqirganlikda ayblangan. Jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

Saidov Sharafiddin – 1875-yil tug‘ilgan. Buxoro shahridan, quloq, savdogar, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. O‘z uyida aksilinqilobiy yig‘inlar chaqirganlikda ayblangan. Jazo muddati 1937-yil 27-avgustdan hisoblangan.

G‘ofurov Asad – 1872-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, quloq, savdogar, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi, hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. Jazo muddati 1937-yil 14-avgustdan hisoblangan. Aksilinqilobiy guruh a’zosi sifatida sovetlarga qarshi mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblangan.

Xo‘jayev Qilich O‘smonovich – 1886-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, sobiq quloq, qorako‘l teri sotuvchisi, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Jazo muddati 1937-yil 27-avgustdan hisoblangan. Aksilinqilobiy kengashlarda qatnashganlikda, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblangan.

Jumayev Ro‘zi – 1891-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan. Qorako‘lteri sotuvchisi, “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi, hibsga olingan vaqtda xizmatchi bo‘lgan. Jazo muddati 1937-yil 31 avgustdan hisoblangan. Aksilinqilobiy guruh a’zosi sifatida yig‘inlarda qatnashganlikda, sovetlarga qarshi tashkilot rahbarlari bilan aloqa bog‘laganlikda ayblangan.

Salomov Samat – 1887-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan. Sobiq yirik savdogar. “Sho‘royi islom” va “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotlarining faol a’zosi. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 2-sentyabridan hisoblangan. Aholi orasida aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, ocharchilik va hokimiyat almashinuvi haqida mish-mishlar tarqatganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

ZAHARXANDA

NOIBGA SOG‘INCHLI SO‘ROVNOMA

Maktubimni “sog‘inchli” deb nomlaganim nimaga ishoraligini ilg‘agandirsiz, hurmatli deputat. O‘sha tarixiy saylov jarayonlarida yuz ko‘rishgandan beri ikki-uch bor “oynai jahon”-da muborak chehrangiz namoyon bo‘lganini aytmasak, sog‘inchimiz kun sayin o‘t ketgan yeryong‘oq poyasidek gurlab boryapti. Bayt:

Falonchibek noib bo‘ldi,
O‘shal kundan g‘oyib bo‘ldi.

Bu satrlar bizim okrugda ma’lum va mashhur bo‘lib, to‘y va ma’rakalarda tez-tez yangrab turadi.

Siz meni yaxshi eslasangiz kerak. (Falon yili 12-noyabr soat 15:00 da) Baqaterak fuqarolar yig‘inida nomzodingiz e’lon qilinib, savol-so‘roqlarga tutilganingizda kamina o‘ta dolzarb masalani ko‘ndalang qo‘yib, sizga qo‘shib ishonchli vakilingizni ham jichcha gangitib tashlagandim. Ha, o‘sha sobiq firqaning otashin voizi “Xudoybergan ateist” nomi bilan tanilgan, ayni kunda qishloq masjidi imomining jamoatchilik masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Xudoybergan hoji Uziqora men bo‘laman. O‘shanda xalq manfaati va yurt ravnaqini ko‘zlab, Solijon fermerga tegishli uzumzordan bir bo‘lakkina ajratib, unib-o‘sib kelayotgan umidli yoshlar uchun besh-olti gektar golf maydoni, turkcha-fincha aralash hammom hamda mo‘jazgina molbozor qurish tashabbusini dadil olg‘a surgandim. Afsuski, faol saylovchingizning bu xayrli murojaati hali-hanuz inobatsiz qolib kelmoqda, hurmatli deputat.

Keyinroq yana ezgu orzu-umidlar bilan aholimizning ma’naviy dunyoqarashini o‘stirish, jami bemazagarchiliklarning sababi bo‘lgan ishsizlikni batamom tugatish rejasi bilan sizga, tuman hokimi, prokuror, adliya, ichki ishlar, xullas, barcha sektor rahbarlariga talabnoma bilan chiqdim (falon yili, 2-yanvar soat 5:20. Murojaatnoma raqami: 148. 5 nusxada). Bu safar jaholat kushandasi bo‘lgan kitobxonlikni oyoqqa qo‘yish muddaosida Solijon fermer hisobida turgan olmazor bog‘ning hovlimga yondosh hududidan o‘n-o‘n besh gektar joyini kutubxona uchun ajratishni so‘ragandim. Kutubxona gavjum bo‘lishi uchun yonboshiga kompyuter o‘yinlari saroyi, devorlari milliy uslubda bezatilgan muhtasham choyxona, golf maydoni va turkcha-fincha aralash hammom barpo etish hamda uning qurilish xarajatlarini moliyaga to‘laqonli yuklash rejasini bayon qilib, majmuaning keyingi faoliyatini o‘z zimmamga olishga tayyorligimni izhor etgandim. Mazkur arizani to‘qqiz bora (falon yili, 1, 3, 9, 11, 14, 17, 20, 23, 24-may, bomdoddan so‘ng) qaytalab yo‘llaganimga qaramay, haligacha biror sochi taqir, buti ayri “Savobtalab senmisan?” deb darvozaxonamga ro‘para bo‘lmadi. Aksincha, tuman faollari meni ta’ziyada ko‘rsa ham tilovatni chala qilib, etak qoqib survoradigan bo‘ldi.

Endi asosiy gapga o‘tsam. Tunov kuni (13-aprel soat 12:10 da) ishonchli vakilingiz Mohir Qo‘zi bilan Zikrillo Durbinni xudoyisida tasodifan yonma-yon o‘tirib qoldik. Vajohatimdan xijolat chekdimi yo sochma nos elitib, ko‘nglini yumshatdimi, bilmadim, nosqovog‘imni qaytara turib: “Yer-per masalasi bilan kattalarni boshini qotirmay, jo‘yali global takliflar bilan chiqing. Toki el-ulus manfaatdor bo‘lsin-u, noib ham achko olsin”, deb qoldi. Shu zahoti miyamda yarq etib bir olamshumul fikr chaqnadi. Faqat taklifimni sabr bilan oxirigacha o‘qib chiqishingizni so‘rayman, hurmatli deputat.

Men afkor ommaga manfaatli va o‘zingizga ham umrbod obro‘ keltiradigan taklifni olg‘a surmoqchiman: o‘zimizning salkam qadriyatga aylangan qadrdon nosvoyni legallashtirishni yalpi majlis kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ysangiz. Bu, birinchidan, ekologik musaffolikni ta’minlashga ulgurji hissangiz bo‘lardi. Chunki isiriqday buruqsitib tutatuvchi mo‘rkon kashandalar nafaqat o‘zini, balki atrofidagi begunoh bandalarni ham zaharlashi fanda isbot etilganiga ancha bo‘ldi. Qolaversa, sigaret yong‘in xavfini keskin oshiradiki, dunyodagi o‘rmon yong‘inlari, mayda-chuyda portlashlar shu zararkunandalikning oqibatidir. Bultur Shukur po‘rimni yeryong‘oqpoyasi g‘arami kultepaga aylangani ham shunday fojianing yaqqol isboti ekanini





butun Qirg‘izqo‘rg‘oncha ahli tasdiqlaydi. Ikkinchidan, nos tarkibidagi foydali elementlar tuproqning unumdorligini oshirib, hosilga beqiyos baraka berishi shubhasiz. Uchinchidan, og‘zida nosi bor odam ikki dunyoda baqirib, birovni haqorat qilmaydi va bu o‘z-o‘zidan jamoatchilikda tartib-intizom hamda mehr-oqibatni shakllantiradi. To‘rtinchidan, olchinlik veterinar Said chashmaning qasamiga ko‘ra, ona sayyoramizni larzaga solgan kovid balosi ham birorta noskashga ilakishmagan. Sababi ayon: tajribali noskashning yaqiniga odam zoti dabdurustdan yo‘lashga jur’at qilolmaganidek, virus va bakteriyalar ham ta’sir hududiga kirar-kirmas tirrang qotarkan. Beshinchidan, nosvoyni xabdori, ya’ni tabletka shaklida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa, turli tarafkashlik va ziddiyatlarga sabab bo‘layotgan “qum nosi”, “porox nos”, “tolqon nos”, “Oysha xolaning nosi”, “Mo‘min nos”, “kurkapo‘rma”, “yog‘lama”, “ipak qurti”, “bojanggayam berma”, “tamakisaqich” kabi turlari yaxlitlashib, mahalliychilik hamda ayirmachilikning ildiziga bolta urilardi. Asosiysi, bugungi kunda jamoatchilik tashvishiga sabab bo‘layotgan “psixotrop”chi tabletka shinavanda yigitchalar ham bu xabdoriga jalb etilib, beboshlarni epaqaga olish jarayoni oson kechardi.

Men amaliy tabobatda tish og‘rig‘iga em sifatida nosvoy qo‘llanishini ta’kidlab o‘tirmayman. Shu o‘rinda, “Tik qoyaga kalla qo‘yma” degan naqlni ham yodga olib, ba’zi betamizlarning nosvoyga ola qarashlari nojoiz ekanini ham uqdirmoqchiman. Chunonchi, yuz yillar burun banoras to‘nli bir shilqimmo‘ylov shoir nosvoyni hajv qilib, undan el maylini qaytarishga uringanini bilamiz. Ammo o‘sha gumroh she’rchi yer yuzidan supurilib ketdi, nosvoy esa hamon barhayot.

Xullasi kalom, siz saylovchilar xohish-irodasini ifoda etib, nosvoyni meni nomimga patentlashga sababchi bo‘lsangiz, qolgan hamma qora ishni kamina o‘z zimmasiga oladi. Buning uchun kerakli tashkilotlarga ko‘rsatma berib, Solijon fermerga qarashli paxtazordan ellik gektarcha yer mening qaramog‘imga o‘tkazib berilsa va nos zavod qurish, tamaki plantatsiyalari, ohakchilik va kimyo sanoati, parrandachilik kompleksini bunyod etish xarajati adliyaga uzil-kesil yuklatilsa, olam guliston. Oqibatda qancha ish o‘rni yaratilib, “NOS” (Nos otuvchilar soyuzi) yoki yangichasiga “NOU” (Nos otarlar uyushmasi) brendi dunyo bo‘ylab shon-u shuhratimizni taratar edi. Siz ham muddatingiz devorga taqalib, yangi saylov sharpasi darvozadan mo‘ralayotgan bir pallada bundoq noib bo‘lib, ishonch ko‘zlarini tikib turgan saylovchilar oldidagi xijolatpazlikdan qutulardingiz, nomingiz tarix zarvaraqlariga abadiy bitilardi. Minglab xumor noskashlarning otashin duosini olib, ikki dunyo savobiga doxil bo‘lardingiz.

Sizdan amaliy natija kutib qoluvchi:
Xudoybergan (ateist)
UZIQORA

Husan SODIQOV chizgan rasm.

TARMOQLARDA NIMA GAP?



ULAR BOSHQA YO‘LDAN KETISHDI

Ellikka yaqin jadid bobolarimiz hayotini o‘rgangan va ular haqida turkum eshittirishlar tayyorlagan jurnalist sifatida bilganlarimni sizlarga ham aytib qo‘ymoqchiman.

Jadidlarning hammasi o‘z zamonasining boylari bo‘lgan. Ular to‘rtta xotin olishi, haftada emas, har kuni choyxonama-choyxona yurib oshxo‘rlik qilishi, o‘n ming qo‘yini yigirma ming, mingta otini o‘n mingta qilishi mumkin edi. Ammo ular boshqa yo‘ldan ketishdi. Otalari topgan mol-mulkka o‘z sarmoyasini qo‘shib maktab qurishdi, xorijdan dastgohlar olib kelib kitob-u gazet chiqarishdi. Jadidlarning maqsadi Vatanni ozod ko‘rish, millatni o‘qimishli qilish edi.

Ular Millat, Vatan deya jonlarini fido qilishdi. “Kitob o‘qimayman”, “Gazet kerakmas”, deya mol, ot, qo‘ylarini ko‘paytirishganlarida edi, Stalin qatag‘onidan omon qolishlari mumkin edi ehtimol...

O‘z nafsini emas, balki Millat, Vatan taqdirini o‘ylab, shu yo‘lda shahid ketganlarning joylari jannatda bo‘lishi uchun duodaman.

Sharofiddin TO‘LAGANOV

TILBILIM

MOTIVATSIYA

So‘nggi paytlarda “motivatsiya” so‘zi tez-tez quloqqa chalinadigan bo‘lib qoldi. Ushbu o‘rinda “motivatsiya” haqida yozish uchun esa menga bir do‘stimizning yaqinda e’lon qilingan maqola tagida qoldirgan izohi “motivatsiya berdi” (sabab bo‘ldi // asos bo‘ldi // ruhlantirdi // ilhomlantirdi // undadi // turtki bo‘ldi). Mazkur jumlada “motivatsiya” o‘rnida qavs ichidagi biror so‘zni qo‘ysam ham tushunarli bo‘lardi, lekin shu so‘zni ishlatgim keldi.

Xo‘sh, “motivatsiya”ni o‘zbekchalashtirish mumkinmi? Faqat bir muammo bor, “motivatsiya” – bu avvalo ilmiy atama. Atama, istilohlar ko‘pincha tarjima qilinmaydi.

Ilgari tilimizda fransuzchadan rus tili orqali o‘tgan “motiv” (“motif”) so‘zi ishlatilardi. “Motiv”ni ham adabiy atama sifatida taniganmiz, xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday izoh berilgan: “motiv [р<фр] – syujetning tarkibiy elementi, asarning asosiy mazmuni, mavzui” (O‘TIL.I.1981.472-bet). “Falonchi adib ijodida vatan motivlari”, “falonchi shoir she’rlarida sevgi motivi” qabilida aytilardi.

Rus tilida esa “motiv” nisbatan kengroq ma’nolarda qo‘llangan. Xususan, “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da “motiv”ning asosiy ma’nolari sifatida: “sabab, bois, vaj” so‘zlari keltirilgan. Misol: “по личным мотивом – shaxsiy sabablarga ko‘ra” (RO‘S.I.1983.573-bet). Bundan tashqari, rus tilida sovet davrida “мотивироват” (“asoslamoq, dalil keltirmoq”) fe’li; “мотивировка” (“asoslar, dalillar, vaj-sabablar”) so‘zi ham yasalgan.

“Motiv”ning fransuzcha shakli – “motif” va unga fransuzcha “Larousse” lug‘atida: “nimadir qilishga, harakatga undaydigan sabab, intellektual omil” deb izoh berilgan. Umuman, “motif” lotincha: “harakatga keltirish, ko‘chish” ma’nosidagi “movere” so‘zidan kelib chiqqan.

Xullas, “motivatsiya” (fr. “motivation”) ana shu “motiv” so‘zidan yasalgan va u “Larousse” lug‘atida: “1. biror-bir ish-harakatni izohlovchi, ta’minlovchi, yuzaga chiqaruvchi omil, sabablar (motivlar) majmui...”, deb izohlangan. Albatta, “motivatsiya”ga berilgan izohlar lug‘atda yana davom etadi, ammo bu atamaning asosiy ochqichi – bu “harakatga keltiruvchi”, biror ish-harakatni yuzaga chiqarishga undovchi sabablarni tushunamiz. Deylik, sizda biror joyga sayohatga borish uchun xohish, mablag‘, vaqt, imkoniyat, xullas, barcha omillar bor, bu sabablar sizni harakatga undaydi, ruhlantiradi, boshqacharoq aytganda, sizga motivatsiya beradi. Aksincha, mazkur omillar bo‘lmasa, tabiiyki, motivatsiya ham bo‘lmaydi. Yoki sizning uning “motivlar majmui” ekanligi. Bundan tashqari, falsafa, ruhshunoslik, iqtisodiyot, tilshunoslik va boshqa fanlarda “motivatsiya” ilmiy atama sifatida turli qo‘shimcha ma’nolarga ega.

Yuqorida biz “motiv” so‘zining lug‘aviy ma’nosi: “harakatga keltirish, ko‘chish” ekanligini aytib o‘tdik, ya’ni, “motiv”, “motivatsiya” deganda biz shunchaki sabab, vaj, omillarni emas, balki uquv va bilimlaringiz imkoniyatingiz darajasidagi sohani tanlashga ilhomlantirishi (motivatsiya berishi) mumkin.

Fransuzcha gapiruvchilar oddiy so‘zlashuvda “motivation”-ga nisbatan ko‘proq “motiver” va “motivé” so‘zlarini qo‘llaydi. “Motiver” fe’li – “sabablar bilan asoslangan” ma’nosiga ega, rus tilida ham unga munosib – “мотивироват” fe’li yasalgan, ammo o‘zbek tiliga bu fe’l o‘zlashmagan; “motivé” so‘zi esa – sifat – “asoslarga (motivatsiyaga) ega” degan ma’no bildiradi, rus tiliga bu so‘z – “мотивированный” bo‘lib o‘tgan (“un homme motivé” – “мотивированный человек”). O‘zbek tilida “motivli” yoki “motivlamoq” deyilmaydi va bunga hojat ham yo‘q. Yuqorida guvohi bo‘ldikki, o‘zbek tilida busiz ham fikrni to‘laqonli ifodalash mumkin.



Alqissa, “motivatsiya” so‘zi hozirda tilimizga shiddat bilan kirib kelayotgan ekan, uni duch kelgan joyda emas, menimcha, ehtiyoj bo‘lganda ko‘proq ilmiy atama sifatida ishlatgan ma’qulroq, toki u jonli tilimizda shu paytgacha ishlatib kelgan so‘zlarimizni siqib chiqarmasin.

Abduvohid HAYIT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6208
Lotin yozuvidagi adadi – 11958
Media kuzatuvchilar – 9654
Buyurtma: G – 440.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 17:50
Sotuvda narxi erkin.